

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma huquqida

UDK (371,913)

Malikova Xurshida Ikromovnaning

**«Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim,
ko‘nikma va malakalarni shakllantirish»**

Mutaxassislik: 5A 111901 – *Surdopedagogika*

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat
Magistratura bo‘limi boshlig‘i
_____ M.Esanov
2014 y «____» iyun

“Korreksion pedagogika”
kafedrası mudiri, p.f.n., dots
_____ SH.Amirsaidova
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots.
_____ Z.N.Mamarajabova

Toshkent-2014 yil

Mundarija

Kirish.....	3
I Bob. Muammoni o‘rganishning ilmiy – nazariy asoslari.....	12
1. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asosi va metodik asoslari.....	12
2. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	27
I-bob bo‘yicha hulosa.....	37
II Bob. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish xolatini o‘rganish metodikasi.....	38
1. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.....	38
2. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish natijalari.....	44
II-bob bo‘yicha xulosa.....	49
III Bob. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoiti.....	52
1. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning tamoyillari.....	52
2. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning usullari va vositalari.....	61
3. Ta’limiy tadqiqot natijalarining tahlili.....	68
III –bob bo‘yicha xulosa.....	81
Umumiy xulosalar.....	83
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	85

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Fakultet: Defektologiya

Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots.

Kafedra: Korreksion pedagogika

Z.N.Mamarajabova

O'quv yili: 2012-2014

Mutaxassisligi: 5A 111901 –

Magistratura talabasi: Malikova

Surpedagogika

Xurshida Ikromovna

**“Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida
bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish” nomli
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

Mavzuning dolzarbligi: Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammo degan xulosaga keldik. Muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib, ularni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, maxsus ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish tizimi va amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayoni samaradorligini oshirish yo'l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar.

Tadqiqotning predmeti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish talimi jarayoni.

Tadqiqotning metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutq va risolalarida ta'lim to'g'risida ilgari surgan fikrlari, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maxsus ta'lim kontseptsiyasi», mazkur hujjatlarning asosiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish printsiplari, mavzuga doir falsafiy, ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik manbalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, maxsus pedagogikaga oid ilg'or tajribalar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish;

- Maxsus maktabda mehnat darslarini kuzatish va tahlil qilish;

- Maxsus maktabda ish olib borayotgan mehnat o'qituvchilarini ish tajribasini o'rganish;

- Maxsus maktab o'quvchilarining tibbiy-pedagogik xujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni darajasi qay holatda ekanligini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazish;

- Savol-javob, suhbat, so'rovnoma, kuzatish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korreksion pedagogik ish ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korreksion pedagogik ishning bugungi holati va uni takomillashtirish yo'llari o'rganildi, ilmiy—pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi. Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korreksion-pedagogik ishga doir pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, hulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Ilmiy rahbar:

f.f.n.,dots. Z.N.Mamarajabova

Magistratura talabasi:

X.I.Malikova

Kirish

Tadqiqotning dolzarbligi. Imkoniyati cheklangan bolalar huquqini himoyalash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Bizning mamlakatimizda doimo davlat e‘tiborida bo‘lib kelgan. Mustaqillik sharofati bilan 1991 yildan boshlab bunday bolalarni ijtimoiy himoyalash, ular uchun ta‘limning eng samarali yo‘llarini izlab topish, yangi modullarini yaratishga kirishildi. Prezident I.A.Karimovning «O‘zbekiston o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» risolasida ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari-keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko‘p bolali oilalarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazasi kafolatli ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan¹. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Fuiqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Sharq mutaffakirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs ahloqiy tarbiyasi va kamolotida mehnat tarbiyasining rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy kamolotida mehnat tarbiyasining yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e‘tibor berganlar. Ular faqat mehnat tarbiyasida rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar — halollik, poklik, mardliq, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo‘yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z falsafiy-ahloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Sharq mutaffakirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan

¹I.A.Karimov «O‘zbekiston o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» Toshkent: O‘zbekiston, 2011.-58.bet

birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs mehnat tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar². Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar — halollik, poklik, mardliq, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-ahloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblangan ta'limni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimini yangilanishiga olib keldi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etish, jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptirish, fuqorolarni ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2008 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoyishini qabul qilinganligi hamda shu direktiv xujjatlar asosida uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirilganligi maxsus ta'lim-tarbiya asoslarini yaratishda muhim omil bo'lib maydonga chiqadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunining 23 moddasida "Jismoniy va

²Amirsaidova SH.M. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida sharq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni va roli: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoreferati. - T.: 2006.-93.bet

ruhiy rivojlanishida nuqsoni mavjud, shuningdek uzoq vaqt davolanishga majbur bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarni tashkil etilishini e'tirof qilinishi ham muhim ahamiyatga molikdir³. Milliy istiqloq mafkurasi asosida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda hayotga tayyorlashda maxsus maktablarning boshlang'ich sinf mehnat ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bugungi kunda maxsus maktablarida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning samarali usullarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Keyingi yillar maxsus ta'lim tizimi, jumladan kar va zaif eshituvchi bolalarni mehnat ta'limi yuzasidan to'plangan tajribalarni o'rganish hamda tahlil etish shuni ko'rsatdiki, maxsus maktablarning boshlang'ich sinf mehnat ta'limi jarayonida ayrim jiddiy kamchiliklar kuzatiladi. Maxsus adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili bo'yicha, bu kamchiliklar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Maxsus maktablarning boshlang'ich sinflari mehnat o'qituvchilarni tayyorlashga ortib borayotgan talablarga mos ilmiy tadqiqot ishlarining yo'qligi, o'quv jarayonini metodik ta'minlanmaganligi, ta'lim tarbiya jarayonidagi muayyan sharoitlar xilma-xilligi va uni amalga oshirish mazmuni, shakl usullari ishlab chiqilmaganligi;

Maxsus ta'lim tizimida mehnat tarbiyasiga jamoatchilikning e'tiborini yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi, o'quv reja, darslik va o'quv qo'llanmalar bir tizimda emasligi, takomillashtirilmaganligi, maxsus maktablarning boshlang'ich sinf mehnat ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga yetarli e'tibor qaratilmayotganligi.

³O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni Toshkent: O'zbekiston, 2007.

Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf mehnat ta'limi jarayoni yildan-yilga o'zgarib bormoqda, takomillashib bormoqda. Lekin bu faoliyatni pirovard natijalarga olib keluvchi jarayonni ilmiy asoslangan xolda tashkil etish zarur. Hozirgi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'limini takomillashtirish, mehnat darslari sifatini ko'tarish usullari, uslublari tadqiqini qamrab olgan ilmiy ishlar mavjud emas. Bu esa bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lib qoladi.

O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik muammolarini tadqiq qilish bilan bir qator olimlar shug'ullandilar. Jumladan, mehnat va kasb ta'limini tashkil etish, takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti R.H.Djurayev, N.Muslimov, E.T.Choriyev, N.Shodiyev, N.Saidahmedov, P.Maguzmov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, yoshlarning ta'lim va tarbiyasini tashkil etish, amalga oshirish, ularga sharqona, o'zbekona milliy urf-odatlarni singdirish kabi muammolar A.Zunnunov, O.Musurmonova, C.Nishonova, S.Ochilov, M.Haydarov, M.Quronov, S.K.Annamurotova, O.Hasanboyevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan⁴. Jumladan, M.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, M.Quronov, A.Erkayev, R.A.Mavlonova, O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, T.S.Usmonxo'jayev, S.Ochil, S.U.Nishonova, R.Hasanov, U.I.Maxkamov, A.I.Izmailov, R.M.Pashayev, D.J.Dorjiyeva, K.A.Dunayev, G.N.Volkov, B.Apishev, N.Sh.Almetov, D.B.Bekimov, M.Mahmudovlarning tadqiqotlarida milliy qadriyatlar, shuningdek, xalq an'analarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muammolari tadqiq etilgan bo'lsa, maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida xalq an'analarining imkoniyati va ta'sirchanlik kuchidan foydalanish, bolalarda mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muammosi O.R.Jamoliddinova, D.Abduraxmonova,

⁴Salixova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan. nomz. ... diss. avtoreferati.–T.: 2004.–25 b.

G.X.Ibragimova, M.M.Nematov hamda M.Sh.Rasulovlar X.Sanaqulov, M.Xaydarov tomonidan tadqiq etilgan⁵.

O‘zbekiston sharoitida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni mehnat va kasb-hunarga tayyorlash muammosi A.Sh.Magdiyev, T.J.Ismoilov, G.M.Muzaffarova, A.K.Nizomov, E.T.Ro‘ziyev, A.Y.Teshaboyev, S.B.Umarov, O‘.D.Xidirov, P.N.Xolmatovlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.⁶

Shuningdek, M.G.Davletshin, A.I.Vorobyev, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, A.Q.Minavvarov, R.A.Mavlonova, A.Xaitov, N.S.Saidaxmedov, M.Haydarov, O‘.Tolipovlar singari o‘zbek olimlarining mehnat ta‘limini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlari ham muhim ahamiyatga ega⁷.

Keyingi yillarda xalqning milliy an‘analaridan, o‘quvchilarni mehnat vositasida ahloqiy tarbiyalarning turli masalalari vazifalarini hal qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Bular jumlasiga S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, C.Nishonova, U.Mahkamov, E.Seytxalilov, R.Axlidinov, N.Ortiqov, Sh.A.Abdullaevalarning doktorlik dissertatsiyalarini, Q.Sh.Boymirov, Sh.K.Jo‘raev, R.S.Shermuhamedov, S.I.Musaeva, A.A.Raxmatullaev, O.R.Jamoliddinova, Z.S.Ochilov, H.R.Sanaqulov, R.Z.Asanova, I.Islamov, N.R.Ashurovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin.⁸

⁵Salixova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an‘analaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan. nomz. ... diss. avtoreferati.–T.: 2004.-25 b.

⁶Ходжабаев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда: Дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: 1992. - 16 с.

⁷Umarov S.B. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyalari. (V-IX sinflar misolida): Ped. fan. nomz.... diss – T.: 2005. - 46 .b.

⁸Salixova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an‘analaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan. nomz. ... diss. avtoreferati.–T.:2004.- 25 b.

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini o'quvchilarini mehnat ta'limi, kasb-hunarga tayyorlash masalasi A.B.Habibullayeva, Y.K.Babanskiy, E.A.Baydalina, L.L.Burlyakova, V.P.Butkovskiy, B.S.Gershunskiy, V.A.Grachikovlar tomonidan tadqiq etilgan. O'rganilgan ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'lishicha, maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha O'zbekistonda L.Mo'minova, V.Raxmonova, N.Sosedova, R.Shomaxmudova, X.Po'latova, P.Po'latova, M.Fayziyeva, G.Sodiqova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, M.Xamidova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova, M.Xakimova ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan⁹. Bunday izlanishlar tarkibiga maxsus maktablarda aqli zaif o'quvchilarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, nutqini rivojlantirish va mustahkamlash, aloxida yordamga muxtoj bolalarni kasb-hunarga tayyorlashga oid tadqiqotlarni kiritish mumkin. Shuningdek, maxsus maktablarda mehnat ta'limini tashkil etish va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga rahbarlik qilish masalalariga doir tadqiqotlar M.Xakimova tomonidan olib borilgan. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolari, xususan ularni savodga o'rgatish, eshituv idrokini rivojlantirish, tilning grammatik tizimini shakllantirish, so'zlashuv nutqini rivojlantirish U.Fayziyeva, N.Bekmuradov, F.Alimjo'jayeva, F.Qodirova, D.Nazarova, R.Raximova ilmiy ishlarida tadqiqot ob'yekti bo'lgan¹⁰. Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammo degan xulosaga keldik. Muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib, ularni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida shu narsa

⁹Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari.: Ped. fan. nomz.dis. ... avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. – 26 b

¹⁰Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b

ma'lum bo'ldiki, maxsus ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot ob'yekti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar.

Tadqiqot predmeti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish ta'limi jarayoni.

Tadqiqot bazasi: Toshkent shahri Olmazor tumani, 106-sonli maxsus maktab.

Tadqiqotning maqsadi: Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish tizimini va amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayoni samaradorligini oshirish yo'l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazlari: shundan iboratki, agar:

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish bo'yicha korreksion-pedagogik ish xususiyatlarini har tomonlama o'rganilsa;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish bo'yicha korreksion-pedagogik ish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga individual yondoshib, ularning psixologo-fiziologik rivojlanishidagi xususiyatlari hisobga olinsa;

- Maxsus maktab mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi talab darajasida bo'lsa;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatishning samarali yo'llari, qulay shart-sharoitlari yaratilsa;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish bo'yicha ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, respublikamizda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutq va risolalarida ta'lim to'g'risida ilgari surgan fikrlari, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maxsus ta'lim konsepsiyasi», mazkur hujjatlarning asosiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish printsiplari, mavzuga doir falsafiy, ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik manbalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, maxsus pedagogikaga oid ilg'or tajribalar tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari:

- Mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish;

- Maxsus maktabda mehnat darslarini kuzatish va tahlil qilish;

- Maxsus maktabda ish olib borayotgan mehnat o'qituvchilarini ish tajribasini o'rganish;

- Maxsus maktab o'quvchilarining tibbiy-pedagogik xujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni darajasi qay holatda ekanligini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazish;

- Savol-javob, suhbat, so'rovnoma, kuzatish.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich: — tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlar, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ilg'or ish tajribalari o'rganildi. Natijada tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi va metodlari aniqlandi xamda dastlabki materiallar to'plandi.

Ikkinchi bosqich: — tadqiqot dasturi, nazariy asosi, mazmuni aniqlandi va ishning eksperimental asoslarini tasdiqlovchi tajribalar metodikasi tayyorlandi.

Uchinchi bosqich: — ta'kidlovchi eksperiment asosida maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korrektsion pedagogik ishning xususiyatlari o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Ishning natijalari maxsus maktab o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash jarayoniga hissa qo'shadi. Dissertatsiya materiallari “Surdopedagogika”, “Surdopsixologiya”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Predmet amaliy ta'lim” kurslarini nazariy jihatdan boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Dissertatsiyaning natijalaridan, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan defektologiya fakul'teti professor-o'qituvchilari va talabalari, xalq ta'limi tizimining barcha maxsus muassasalarining tarbiyachi, defektologlari, ota-onalar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korrektsion pedagogik ish ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korrektsion pedagogik ishning bugungi holati va uni takomillashtirish yo'llari o'rganildi, ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi. Maxsus maktab o'quvchilarini mehnatga o'rgatish bo'yicha korrektsion-pedagogik ishga doir pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ta'limiy muammo ekanligi;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. MUAMMONI O‘RGANISHNING ILMIIY – NAZARIY ASOSLARI

1. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asosi va metodik asoslari

Surdopedogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tadqiqot ob‘yektida o‘rgangan pedogog va olimlar J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar, S.Speshnovlar murojaat etilgan nutqini tushuna oladigan, qisman lug‘at boyligiga ega bo‘lgan, xatto sodda gaplar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan xolda aytilsa, bunday bolalar ta‘lim-tarbiyasining muammolarini xal etilishi mumkinligini ta‘kidlab o‘tgan. R.M.Boskis eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘lim samaradorligining omili ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish hususiyatlarini tushunish deb hisoblab, L.S.Vigotskiyning “Nuqsonning murakkab tuzilishi” hamda “Ta‘lim – tarbiya va rivojlanish mutanosibli” ta‘limotlarga, I.P.Pavlovning “Analizatorlar faoliyati birligi psixologik ta‘limotlarga tayanadi. 1925 yil eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘limi bo‘yicha Halqaro konferensiyada A.S.Vigoskiy “Aynan mehnat ta‘limi va tarbiyasini qo‘llash karlarni o‘qitishdagi barcha qiyinchiliklardan chiqib ketish yo‘lidir. Asosiysi, mehnat tarbiyasi hayotga eng yaxshi yo‘l, u ilk yoshdanoq hayotda faol ishtirok etish uchun garovdir. Shuning uchun u kar bolani barcha narsa, muloqot, nutq, idrok bilan qurollantiradi¹¹.

S.A.Zikov, M.I.Glebova, Ye.N.Marsinovskaya, M.F.Titovalar o‘quvchilarda so‘zlashuv nutqini shakllantirishda ko‘rgazmali amaliy faoliyatning ahamiyatini ilmiy asoslab beradi. S.A.Zikov ko‘rgazmali amaliy faoliyatni uch guruhga ajratadi¹²: ilyustrativ-tasviriy, o‘lchov-hisobli va oddiy materialdan buyum yasash.

¹¹Зикова Т.С., Зикова М.А. Методика предметно–практического обучения в школах для глухих детей.-М., “Академия”. 2002.–169с

¹²Зикова Т.С., Зикова М.А. Методика предметно–практического обучения в школах для глухих детей.-М., “Академия”. 2002.–170с

S.A.Zikov, T.S.Zikova ta'limotlariga asosan, Ye.N.Marsinovskaya predmet amaliy faoliyat kar bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim didaktik sharoit ekanligini tadqiq etgan.

L.A.Novaselov kar bolalarning mehnat ta'limini quyidagicha tasniflaydi:

Qo'l mehnati (tayyorlov–4 sinf)

Umumtexnik tayyorgarlik (5–8 sinf)

Professional ta'lim (9–12 sinf) Har bir bosqichning vazifalarini ko'rsatib o'tadi: 1. Qo'l mehnati kar o'quvchilarga hayotiy borliqni tez va mukammal anglash imkonini beradi. U bolaning shaxsining, uni intellektual kuchi, bilish imkoniyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mehnat faoliyatini bajarish jarayonida kar o'quvchilar o'zini jismoniy va aqliy kuchini ongli boshqarishga o'rganadi, bu ularning umumiy faoligi va ishchanligini oshiradi. Kar bolalarning maktabida mehnat darslarning didaktik ahamiyati kattadir. Mehnat darslariga qo'yiladigan talablardan biri uni boshqa o'quv fanlari bilan aloqa o'rnatishdir. Bir tomondan mehnat darslari boshqa o'quv fanlarda zarur bo'ladigan ma'lum bilimlarni beradi, hamda boshqa darslarda olingan bilimlarni mustaxkamlaydi. Bunday aloqani o'rnatish pedogogik jarayonni to'g'ri va samarali tashkil etishda muhim omildir.

Qo'l mehnati nafaqat ta'limiy ahamiyat kasb etadi, balki o'quvchining shaxsining tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U qiyinchiliklarni bartaraf etishga majbur etadi (buyumlarni yasash jarayonida), bu iroda va qatiyatlilikni tarbiyalashga sabab bo'ladi. O'quvchilarda jamoa faoliyati, o'rtoqlik o'zaro yordami va intizomlilik malakalarini tarbiyalaydi. Bunga bog'liq holda, o'quvchi ish jarayonida "men"ni emas, balki "biz"ni ko'ra olishini ko'zda tutuvchi brigada bilan ishlash, juft bo'lib ishlash ish turlarini qo'llash lozim. Qo'l mehnati darslari uchun alohida xona ajratilishi maqsadga muvofiq. Mazkur xona mavjud bo'lmasa, o'quvchilar partalarda osma doskalar va ish qurollari saqlanadigan qutilar bo'lishi kerak.

Mehnat darsi tashkiliy bosqichdan boshlanadi. Keyin o'quvchilar o'qituvchining turli vazifalarini bajaradi ("Plastilinni yumshat", "Doirani oq qog'ozga yopishtir"). O'tilgan mavzuni takrorlashga yo'naltirilgan mazkur vazifalarni bajargandan so'ng, o'qituvchi darsda o'quvchilar nimalar bilan band bo'lishini e'lon qiladi. Dastlab u ish qurollari va materiallarni mustaqil yoki o'qituvchi yordamida tanlashni so'raydi. So'ng buyumni yasash jarayonini o'z xarakatlari bilan ko'rsatadi, o'quvchilar uning xarakatlarini takrorlaydilar. Ishni bajarish ketma-ketligi doskadagi yozuvda, 2-sinfdan o'quvchilar daftarlarida o'z aksini topishi kerak. Bu ta'limning keyingi yillarda o'quvchilarga ko'rsatma kartalari bo'yicha oson ishlash imkonini beradi. Qo'l mehnati o'quvchilar umumtexnik ta'limi asoslanadigan elementar bilim, ko'nikma va malakalarni beradi.

A.P.Gazova kar bolalarning mehnat ta'limi psixologiyasini tadqiq etgan. U professional-mehnat ta'limi jarayonida ruhiy faoliyat tarkibini, kar bolalarda xarakter, xarakterni boshqarish, o'lchash, malakalarini shakllantirish, mehnat ta'limini nutqiy ta'minlanishi, eshitmaydigan yoshlarni proforiyentatsiya masalalarini tahlil qilgan¹³. U eshitmaydigan bolalarda turli kasbiy-mehnat malakalarini shakllanitirish dinamikasi, turli simvolikalar, hususan nutqiy muloqot orqali beriladigan o'quv-ishlab-chiqarish ma'lumotlarini idrok etish sharoiti va o'ziga xos hususiyatlarini o'rgangan.

S.Musayeva e'tiroficha, mehnat ta'limi va tarbiyasi maqsadi mehnat sevarlikni tarbiyalash, mehnatga va mehnat kishilariga hurmat, o'quvchilar hususiyatlariga mos kasblar bilan tanishishlari, dars va umum foydali ishlarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish hamda tejamkorlik hislatlarini, ijtimoiy boylikka tejamkorlik munosabati saboqlarini singdirishdan iborat. Umumeros an'analarimizni tiklab, uni davom ettirishimiz emas, mehnat ta'limi darslarida ularni boitib qo'llash lozim¹⁴.

¹³А.П.Газова Психолгия трудового обучения глухих .М., "Педагогика".1999.214.-с.

Mehnat ta'limining turli bosqichlarida bu umumiy vazifa turlicha hal etiladi. Agar 1-etapda (1-4 sinflar) o'quvchilar mehnat savodxonligini, 2-etapda (5-8 sinflar) Umumiy texnik tayyorgarlikni, 3-etapda (9-12sinflar) professional mehnat bilimini oladilar. Mehnat ta'limi umumtexnik ta'lim bosqichida umumiy o'quv-tarbiyaning maqsadi asosida amalga oshadi. Bu mehnatning didaktik imkoniyatlari kengaytirish va qo'llash uchun keng imkoniyat yaratadi. S.Musayeva e'tiroficha, mehnat ta'limi va tarbiyasi maqsadi mehnat sevarlikni tarbiyalash, mehnatga va mehnat kishilariga hurmat, o'quvchilar hususiyatlariga mos kasblar bilan tanishishlari, dars va umum foydali ishlarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish hamda tejamkorlik hislatlarini, ijtimoiy boylikka tejamkorlik munosabati saboqlarini singdirishdan iborat. Umummeros an'analarimizni tiklab, uni davom ettirishimiz emas, mehnat ta'limi darslarida ularni boitib qo'llash lozim.¹⁵

S.Musayeva mehnat ta'limi darslarining komillashtirish, mehnat darsida o'quvchilarga qog'oz, karton, gazlama va tolali matolar bilan ishlashda tejamkorlik hislatlarini singdirib borishni tajriba-sinov ishlari davomida tekshirib ko'rdi, mavzuga oid nazariy va amaliy ishlarni o'rganib chiqdi. U mehnat ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarga tejamkorlik hislatlarini singdirib borish mavzusidagi dissertatsiyasida mehnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarga tejamkorlik hislatlarini singdirishga oid nazariy fikr va amaliy ishlarni o'rganib tahlil qildi, tavsiyalar ishlab chiqdi. Mehnat so'zi zamirida turli bilimlarni o'rganish, har bir shaxsning qobiliyati va qiziqishiga yarasha kasb-hunar o'rgatish va xalq manfaati yo'lida biror ish bilan shug'ullanish singari ma'nolar yotadi. O'quvchilarda mehnatga muhabbati avval oilada, ota-onaning shaxsiy namunalari asosida, keyinchalik maktabda mehnat ta'limi darslari, darsdan tashqari tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Mehnat ta'limi o'yin tarzida boshlash kerak. O'quvchilarga kerakli asboblarni musiqa asosida tarqatish lozim. Tarqatayotgan bola ishni musiqa bilan boshlab,

¹⁵Musayeva S.I. Mehnat ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tejamkorlik hislatlarini singdirish: Ped. fan. nomz. ... diss. – T.: 1995. - 60 b

musiqa tugaguncha tarqatib bo‘ladi. O‘qituvchi dars boshlashdan oldin, o‘qituvchi dars boshlashdan oldin, o‘quvchilar bilan salomlashadi. Navbatchi o‘qituvchi yordamida kerakli narsalarni stol ustiga qo‘yish lozimligini e‘lon qiladi. O‘quvchilar bilan oldingi dars mustaxkamlanadi. Yangi mavziga o‘tiladi. Istiqloqlga qadar respublikamizda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablarida ta‘lim-tarbiya jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya maxsus maktablar yoki O‘zbekistondagi umumta‘lim maktablar, ba‘zi aqli zaif bolalar maktablariga mo‘ljallangan dastur va darsliklarni biroz o‘zgartirib ishlash asosida tashkil etiladi. Maxsus tizim amaliy stixiyali ravishda tizimdagi ishning shu yo‘nalish asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi. Tabiiyki, bir tomonda til zaminida to‘g‘ri kelmasligi, ikkinchi tomonda me‘yorda rivojlanayotgan bolalar, uchinchi tomonda aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar hususiyatlariga tayangan holda tuzilgan dastur va darsliklar asosida ishni tashkil etish eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘lim muasasalariga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini bermas edi.

P.P.Kostenkov maktabda mehnat tarbiyasi jarayoni, o‘quvchilarda mehnat faoliyati motivlarini tarbiyalash, o‘quvchilarni mehnati tasnifi va tanlovi, maktabda mehnat faoliyatini tashkil etish shakllarini tahlil etgan¹⁶. Uning fikricha, mehnat tarbiyasini tadqiq etish mehnat tarbiyasi tizimini aniqlash va mehnat tayyorgarligining yangi dasturlarini yaratish imkonini beradi. U mehnat tarbiyasi shakllariga “G‘isht qanday tayyorlanadi?”, “Uy qanday quriladi?” mavzularida suhbatlar, mehnat fahriylari bilan uchrashuvlar, mehnat mavzuidagi kitoblarni o‘qish va tahlil etish, maktab oshxonasida ishlash, o‘yinchoqlar fabrikasi, maktab bog‘i faoliyati, o‘quvchilar mehnati natijalari ko‘rgazmasi, tayyorlangan o‘yinchoqlar konkursleri, nafaqaxo‘rlar, nogironlar va katta oilalarga yordam berish, shanbaliklar, sinfdagi navbatchilik, maktab jamoasi mehnat buyurtmalarini bajarishda ishtirok etish kabilarni kiritadi. O‘quvchilar bevosita ishlab–chiqarish

¹⁶П.П.Костенков Процесс трудового воспитания в школе. Барнаул. “Алтайское книжное издательство”.1996. – с. 65.

mehnatida ishtirok etadilar: bog‘chalar uchun o‘yinchoqlar tayyorlaydilar, kutubxona darsliklarni ta‘mirleydilar, ko‘rgazmali qurollar yasaydilar, makalatura va metollom yig‘ishda ishtirok etadilar, maktab, mahallalarni ko‘kalamzorlashtirishda qatnashadilar. P.P.Kostenkovning e‘tiroficha, pedagogika ilmiy yo‘l bilan barcha maktablarda mehnat tarbiyasi uchun xarakterli, tipik hususiyatlarni tanlab olib, shu asosda dastur ishlab chiqishi kerak.¹⁷ Maktabda mehnat ta‘limi tushunchasi mazmuni jismoniy va ma‘naviy kuch–qudrat ko‘rinishida o‘quvchining shaxsi sifatlarini aniqlash, tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Pedagog o‘quvchi shaxsi sifatlarini shakllantirish, ayrimlarini bartaraf etish uchun qulay shart–sharoit yaratish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Mehnat ta‘limining rejali va maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun maxsus maktablar uchun yagona dastur ishlab chiqish kerak. Dasturni ishlab chiqish mamlakatimiz va chet el maktablari, o‘qituvchilari tajribasiga asoslanishi kerak. Dastur uchun material tanlash tamoyillari: bolalarning yosh rivojlanish qoidalarini, xalqimiz mehnat faoliyati va fan–texnika doirasida namoyon bo‘layotgan jamiyatimiz kelajagi va milliy qadriyatlarimizni, mehnat tarbiyasini tabiat, ishlab-chiqarish va boshqa shart–sharoitlarini hisobga olish darkor.¹⁸ Bolalarda mehnat motivlarini rivojlantirish–milliy ong va hulq odobni shakllantirishning asosiy yo‘llaridan biridir. Mehnat motivlari bolalarda ma‘lum faoliyatga kirishish kasbiy qiziqishni shakllantirish, mehnat intizomi, o‘z-o‘zini tarbiyalashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnat motivlari o‘quvchilarni ko‘p qirrali motivlari, xususan, o‘qish motivi, ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq. Olim shu sababli mehnat ta‘limi komponentlaridan biri sifatida mehnat faoliyati motivlarini ko‘rsatadi.¹⁹ Mehnat faoliyatiga o‘quvchini ma‘lum motivlar yo‘naltiradi. U asosida bola qo‘yilgan maqsadga erishishda to‘siq va qiyichiliklarni yengishda qatnashuvchi shakllanadi. O‘quvchilarda mehnat motivlarni tarbiyalash

¹⁷П.П.Костенков Процесс трудового воспитания в школе. Барнаул. “Алтайское книжное издательство”. 1996. – с. 75.

¹⁸Mazkur kitob 86 bet.

¹⁹Mazkur kitob 94 bet.

mazmuni, metodlari, shakli, yo'llarini aniqlash maqsadida Altay o'lkasi maktablarining 503 nafar 1–10 sinf o'quvchilari bilan so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnoma natijalari tahlili, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar mehnat motivlari shaxsiy hayoti va atrofidagi hodisalari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Ulardagi asosiy stimuly ijobiy baho olish, o'qituvchi, ota-ona maqtoviga erishish ekanligi va ularga mehnat jarayonining o'zi qiziqarli ekanligi isbotlandi. 5-8 sinflarda mehnat motivlarining ijtimoiy xarakteri ortishi kuzatildi. Bu inson ijtimoiy hayoti haqidagi bilimlar, o'quvchilarning mehnat va hayotiy tajribasini ortishi va chuqurlashishi bilan bog'liqdir.

S.A.Zikov, L.M.Bikov, T.S.Zikova, Ye.N.Marsinovskaya, T.V.Nesterovich, Ye.G.Rechiskayalarning ilmiy-tadqiqotlarida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida mehnat faoliyati o'rni beqiyosligi takidlanadi²⁰. Mehnat faoliyati zaif eshituvchi o'quvchilarni mehnatga psixologik tayyorlaydi, amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantiradi, mehnatsevarlik, mustaqillik, qatiyatlilik kabi xarakter hislatlarini tarbiyalaydi. Lekin, eshitishning pasayishi va nutqiy rivojlanmaganlik zaif eshituvchi bolalar mehnat ta'limi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ma'lumotni qabul qilish, mehnat operatsiyalarini amaliy egallash, to'g'ri, sifatli bajarishda, mehnat faoliyati bilan bog'liq yangi so'z va tushunchalarni idrok etish va bayon etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli mehnat ta'lim dasturi bilish faoliyati (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash) va motor-xarakat doirasini shakllantirishni ko'zda tutuvchi turli mehnat faoliyat turlarini (yasash, chizish, applikatsiya, tikish, konstruktorlash) qamrab olgan. Mehnat faoliyati turlari zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash, fazoviy va qiyoslash tushunchalarini shakllantiradi. I.Y.Vitola fikricha, mehnat darsida berilgan so'z, ibora va gaplar zaif eshituvchi bolalar mehnat faoliyatiga kiritilmasa, ular bolalar xotirasida saqlanib qolmaydi. Hususan, mehnat darslari yozma va og'zaki nutqni

²⁰Musayeva S.I. Mehnat ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tejamkorlik hislatlarini singdirish: Ped. fan. nomz. ... diss. – T.: 1995. - 60 b

rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Mehnat darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning qulay shart-sharoit-darsni to'g'ri tashkil etishdir. Dastur talablari asosidagi mavzu hamda tayyorlanishi ko'zda tutilayotgan buyum nomi aniqlanib olinishi lozim. Tayyorlanishi ko'zda tutilayotgan buyum nomi bir qancha darslarda takrorlanishi mumkin, lekin ish turlari o'zgarib boradi: a) olmani plastilindan yasash; b) olmani applikatsiyasini tayyorlash; v) olma tasvirini matoga tikish. Dars maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Dars metodikasi va samaradorligi qo'yilgan maqsadga bog'liq bo'ladi. Dars maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanish asosida belgilanadi. Hususan, I.Y.Vitola mehnat darsining quyidagi bosqichlarini tavsiflaydi:

1. Mehnatga tayyorgarlik.

A) Dars mavzusi va maqsadini bayon etish.

B) Buyum tayyorlash rejasini tuzish.

V) Mehnat materialini va ish qurollarini aniqlash.

G) Mehnat materialini va ish qurollarini tarqatish.

2. Mehnat faoliyati hajmini aniqlash. Bu jarayon turli yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

A) Stolga kerakli mehnat materialini va ish qurollari joylashtiriladi (hammasi emas). Bolalardan mehnat materialini va ish qurollarini nomi va bajariladigan ish turini aniqlash talab etiladi: "Xozir nima yasaymiz? Nima uchun sen bunday o'ylayapsan?"

B) Ish turi qog'oz, qaychi, yelim, al'bom, rangli qog'oz so'zlari ifodalangan jadvallar asosida aniqlanadi. O'qituvchi "Qirqamiz" deb bolalarga murojaat qiladi. Bolalar unga mos keluvchi jadvalchani olib, mehnat materialini va ish qurollarini tanlaydilar.

V) O'qituvchi "Bizga qaychi va qog'oz kerak. Nima qilamiz?" tipida murojaat qilib ish boshlaydi.

G) O‘quvchilar ish turini yasaladigan buyum namunasiga qarab aniqlaydilar. Buyumni ko‘rsatib (“Uni nomla”), nimadan tayyorlanganligi aniqlash taklif etiladi.

D) Yozilgan ko‘rsatma asosida ish turi aniqlanadi.

E) Yasalishi maqsad etilgan buyum nomi tomishmoq orqali topish vazifasi beriladi.

J) Yasagan buyum nima uchun kerak? U qanday qismlardan tashkil topgan? Savollari asosida mehnat faoliyati aniqlanadi.

Z) Jadvallarda ifodalangan operatsiyalar ketma-ketligi asosida mehnat faoliyati ob‘yekti aniqlanadi.

3. Rejalashtirish

Rejalashtirish darsning eng muhim qismi sanaladi. Masalan, olma applikasiyasini tayyorlashdan oldin, avval ishni nimadan boshlash kerakligini o‘ylab chiqish kerak. Bu bosqichda o‘qituvchining ko‘rsatmasini eshitib, o‘quvchilar o‘zlari mehnat faoliyati davomiyligini bayon etadilar. Masalan,

-Rangli qog‘ozlarni o‘zing uchun ol!

-Rangli qog‘ozlarni o‘quvchilarga tarqat!

-Sarvar, kartonlarni bolalarga tarqat!

-Barno, qaychi va yelimni qizlarga tarqat!

-Karim, qaychi va yelimni o‘g‘il bolalarga tarqat!

Mehnat darslarida yozma nutqni ham qo‘llash kerak. O‘quvchilar yangi so‘zlar lug‘at daftari va yozuvlar uchun daftar tutishlari lozim. Yangi so‘zlar bilan ishlashda plakatlar, jadvallar, ko‘rgazmali qurollar, rasmlar bo‘lishi shart.

Buyum yasash

Mehnat darslari bolalar hayotida zarur malaka, ko‘nikmalarni shakllantirish va konstruktorlash ijodiyoti, qobiliyatini rivojlantirish uchun keng imkon yaratadi. Dars jarayonida o‘qituvchi bolalarni muloqotga undaydi. (Tarqat! Ol! Taxla! Joylashtir!) Agar sinf brigada yoki guruhlariga bo‘lingan bo‘lsa, buyruqni sardorlar, navbatchi, kichik o‘qituvchi beradi. Mehnat faoliyati jarayonida o‘quvchilar amalga oshirayotgan xarakatlari va yasagan buyumlari borasida hisobot beradilar.

Mehnat darslarida jamoa bo‘lib ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Bizning maktab” maketini tayyorlashda qanday material, ish qurollari va bolalarning vazifasi aniqlanib olinishi kerak. Jamoa ishini tashkil etishda har bir o‘quvchining individual hususiyatlarini hisobga olish darkor. Maket tayyorlash jarayoniga har bir o‘quvchini jalb etish, dars yakunida har bir o‘quvchi o‘zini bajargan ishi bo‘yicha hisobot berishi kerak. O‘qituvchi bolalar suhbatini boshqarib, hatolarni tuzatib boradi, ularni mehnati natijasini baholaydi.

Darsning har bosqichining nutq, taffakur va eshitishni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qog‘oz va karton bilan ishlash o‘quvchilarda rang, shakl, maza sezgisini rivojlantiradi, hayot va tabiat go‘zalligini his etishga yordam beradi. Gazmol bilan ishlab o‘quvchilar tikish, to‘qish, bichish, kashta tikish, to‘qish malakalariga ega bo‘ladilar. O‘z-o‘ziga hizmatning bu turlari sinfdan tashqari ishlarda nutqni rivojlanirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolalar ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Texnik modellashtirish ishlab-chiqarish ma’lumotlari, inson hayotida texnika roli bilan tanishtiradi. Mehnat darslarida yasalgan buyumlar o‘qish, ona tili, matematika, nutq o‘stirish darslarida foydalanish mumkin. Qishloq ho‘jaligi mehnati tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Mehnat ob’yektlarini xilma-xilligi bolalarni mehnat faoliyatiga befarqligini bartaraf etadi, o‘z navbatida ularning nutqi va bilish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

I.Y.Vitola e’tiroficha, mehnat darslari mazmunini aniqlashda, buyum yasash va uning ma’noli-nutqiy yo‘naltirilishini hisobga olish darkor.²¹

Mehnat darslari bolalarni ijodiy qobiliyatini va konstruktorlik malakasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Dars jarayonida o‘qituvchi, guruh rahbari, kichik o‘qituvchi, navbatchi bolalarni muloqotga undaydi. Masalan, 1-sinfda qog‘oz, plastilin, gazmol va maktab uchastkasida mehnat faoliyati kabi ish turlari amalga oshadi. Turli faoliyat jarayonida bolalar ma’lum lug‘at boyligini:

²¹Сурдопедагогика/ Под рел. М.И.Никитиной. –М.: Просвищение, 1989. -34 с.

mehnat qurollari va buyumlar nomini bilishlari, "Menga qizil ipni berib turing. Men gul naqshini tikmoqchiman" tipida murojat etishlari talab etiladi.

Zaif eshituvchi bolalar nutqni yaxshi egallashlari uchun lugʻat materiallari doska va plakatlar, jadvallarda ifodalanadi. Zaif eshituvchi bolalar yangi tushunchalar bilan tanish darajasiga koʻra maxsus daftarlarga qayd etib boradilar. Mehnat darslarini boshqa oʻquv fanlari bilan bogʻlab oʻtish maqsadga muvofiq. Chunki, Mehnat darslarida zaif eshituvchi bolalar matematika, tabiatshunoslik, ona tili, oʻqish fanlarida, kundalik hayotdagi soʻzlashuv muloqotida olgan bilim va malakalarini qoʻllaydilar, mustahkamlaydilar. Shuningdek, Mehnat darslarida olingan bilimlar boshqa oʻquv fanlariga jalb etiladi, yasalgan buyumlar koʻrgazmali qurol sifatida foydalaniladi.

Hususan, 1-sinfda qogʻoz bilan ishlashda geometrik shakllarning tayyor qolipidan foydalanadi. Ular asosida oʻquvchilar figuralarni rangli qogʻozdan qirqadilar va oʻqituvchi topshirigʻiga koʻra oq qogʻozga joylashtiradilar. Shu tariqa, uch kvadrat, ikki doira, bir uchburchak kombinatsiyasidan iborat sodda applikatsiyalarni yasaydilar. (Qogʻozga turli rangli uch va toʻrt doiralarni joylashtiring). Bu material katta nutqiy faoliyat material geometrik figuralar aniqlanib, nomlanadi, soʻng ranglari nomlanadi. Mehnat faoliyatida "Qogʻozda geometrik figuralarni joylashtirdim", "Men geometrik figuralardan applikasiya tayyorladim."

Mehnat darslarida iltimos va murojaatni talab qiluvchi sharoitni yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda turli konstruksiyadagi gaplarni ishlatish lozim. Bolalar savzavotlarni yasashganida, savzavotlar tarkibiga olma kiritiladi. Agar, bolalarni oʻzlari olmani savzavotlarga kiritish mumkin emasligini anglamasa, oʻqituvchi ularni toʻgʻri fikrlashlariga undaydi. Mehnat faoliyatida mehnat materiallari yoki mehnat qurollari biri atab berilmaydi. Bu bolalarni buyumni yasash jarayoni va soʻzli murojaat haqida fikr yuritishga olib keladi.

"Sabzavotlarni yasash" mavzusida ish olib borishdan oldin Maktab uchastkasida rasm asosida suxbat olib boriladi. Bolalar rasmda qaysi fasl

tasvirlangan? O‘quvchilar nima qilishyapti? Ular qanday sabzavotlar terib olishyapti? So‘ng o‘quvchilar tabiiy predmetlar va rasmlarni tomosha qiladilar, sabzavotlarni nomlashadi. Uning rangi va shaklini aniqlashadi. O‘qituvchi sabzavotlarni yasash uchun qaysi rangli plastilindan foydalanishi kerakligini aniqlaydi.

-Men sabzini yasayman. Iltimos, menga sariq platilin bering.

-Men pamidorni yasayman. Iltimos, menga qizil platilin bering.

Agar bolalar javobini og‘zaki shaklda ifodalay olmasa, ularni diqqati doskadagi Menni yasayman. Iltimos, menga platilin bering. Yozuviga qaratiladi. 1-sinfda yuqorida ko‘rsatilgan yozuvlardan foydalanish muntazam ravishda bo‘lsa, 2-sinfda o‘quvchilar iltimosni mustaqil bayon etishlari mumkin. Dars yakuniga yetgach, nutqiy ish olib boriladi. “Biz nima qildik” (Biz sabzavot yasadik.) “Biz qanday sabzavotlar yasadik?” (Biz sabzi, pamidor, kartoshka yasadik).

Bolalarni ishlarini baholashda ehtiyotkorona va ob‘yektiv munosabatda bo‘lish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar tez ta’sirchan bo‘lgani uchun, agar bola xarakat qilgan bo‘lsayu, unda xech narsa chiqmagan bo‘lsa ham uni o‘z-o‘ziga ishonchini so‘ndirmaslik uchun rag‘batlantirib turish kerak. Bolalarni yaxshi bajargan ishlarini Nutq o‘stirish va Ona tili darslarida foydalanish mumkin.

Gazmol bilan ishlashda turli materiallardan? (bo‘z, zig‘ir mato, chit, satin, tabiiy ipak, sun‘iy ipak, trikotaj, sherst, drap) iborat stenddan foydalaniladi. Bu stenddan bolalar qator yillar davomida foydalaniladilar. 1-sinfda surp bilan tanishadilar, unga sodda choklar tikadilar. 2,3,4,5-sinflarda turli gazmol turlari bilan tanishadilar. Kiyimlarni ta’mirlash jarayonida “Men surpga gul chokini tikiyapman. Menga qizil va yashil iplar kerak.” tipidagi iboralarni qo‘llaydilar.

M.A.Golovinova ta’kidlashicha, mehnat faoliyatida nutqni rivojlantirishga bolalar tomonidan tuzilgan reja va talabnomalar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hususan,

M.A.Golovinova 2-sinfda o‘quvchilar gullar applikasiyasini tayyorlash jarayoni rejasini va talabnomani quyidagi ko‘rinishda berilishini eti’rof etadi.²²

Bolalar ish rejasini o‘qiydilar. O‘qituvchi kerakli materiallar ro‘yxatini tuzishni taklif etadi. Dastlab o‘qituvchi bolalarga yordam beradi, keyin ular mustaqil bajaradilar. Bolalar ish rejasini har bir qismini o‘qib, uni amalga oshirish uchun nima lozimligini o‘ylab topadilar.

Mehnat darslarida nutqni rivojlantirish jarayonida “Kichik o‘qituvchi” ish turi samarali usul sanaladi. Dastlab kichik o‘qituvchi rolini nutqi yaxshi bola bajaradi, chunki u tayyorgarlik talab etmaydi. Kichik o‘qituvchi darsning boshi, o‘rtasi yoki yakunida o‘qituvchi o‘rnida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, “Bo‘g‘irsoq” ertagi maketini yasash jarayonida “Kichik o‘qituvchi” dars boshida ishlaydi. U stol oldida o‘qituvchi o‘rnida turadi, bolalar unga murojat qilishadi: “Biz bugun nima qilamiz?” (Biz ertak qahramonlarini yasaymiz) Qaysi ertak qahramonlarini yasaymiz? (“Bo‘g‘irsoq” ertagi qahramonlari) Kimni yasaymiz? (Biz bo‘g‘irsoq, quyon, ayiq, tulkini yasaymiz) Bo‘g‘irsoq qanday rangda? (sariq rangda) Tulkini yasash uchun qanday plastilin kerak? (Sariq va jigarrang plastilin kerak) Shu tariqa kichik o‘qituvchi faoliyati yakun topadi va o‘qituvchi darsni o‘zi davom ettiradi. “Kichik o‘qituvchi” faoliyati vaqti asta –sekinlik bilan uzayadi va butun dars davomida bo‘lishi mumkin. Bu ish turida bolalar mehnat qilish, so‘zlashish, fikrlashga o‘rganadi. Demak, mehnat faoliyatida hayotiy bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan nutqiy malakalarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi. Darsning har bosqichi nutq, taffakur va eshitishni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qog‘oz va karton bilan ishlash o‘quvchilarda rang, shakl, maza sezgisini rivojlantiradi, hayot va tabiat go‘zalligini his etishga yordam beradi. Gazmol bilan ishlab o‘quvchilar tikish, to‘qish, bichish, kashta tikish, to‘qish malakalariga ega bo‘ladilar. O‘z-o‘ziga hizmatning bu turlari sinfdan tashqari ishlarda nutqni rivojlanirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy materiallar

²²Сурдопедагогика/ Под рел. М.И.Никитиной. –М.: Просвищение, 1989. -34 с.

bilan ishlash bolalar ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Texnik modellashtirish ishlab-chiqarish ma'lumotlari, inson hayotida texnika roli bilan tanishtiradi. Mehnat darslarida yasalgan buyumlar o'qish, ona tili, matematika, nutq o'stirish darslarida foydalanish mumkin. Qishloq ho'jaligi mehnati tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Mehnat ob'yektlarini xilma-xilligi bolalarni mehnat faoliyatiga befarqligini bartaraf etadi, o'z navbatida ularning nutqi va bilish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ye.Ye.Rechiskaya o'quvchilar jamoasidagi predmet–amaliy faoliyatda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'zaro muloqoti uchun motivatsiyalashgan shart-sharoit, jamoa faoliyati xarakteriga ko'ra bayon etish, ko'rsatma berish, baxolash vazifalari yuzaga keladi, deb ko'rsatadi.

S.A.Zikov etiroficha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida har qanday darsni rejalashtirishda o'qituvchi darsda o'quvchilar egallash lozim bo'lgan mazmun, balki o'qitish jarayonidagi nutqiy materialni ham aniqlab olishi kerak.

Ye.Ye.Vishnevskaya mehnat darslari uchun nutqiy materialni to'rt xil turga tavsiflashni taklif etadi²³.

Birinchi guruhga egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni fiksatsiyasi, tushunchalarni shakllantirishga mo'ljallangan nutqiy materialni kiritadi. O'qish darslarida matn tarkibidagi yangi so'z va gaplardir, mehnat darslarida operatsiya, ish qurollari va materiallari sanaladi. Ikkinchi guruhga o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro muloqoti uchun zarur so'z va gaplar kiritiladi: topshiriqlar, muloqotga undash, yordam uchun iltimos, ishni baholash, iltimos, ish qurollari va materiallari haqidagi talablar. Uchinchi guruh o'quvchilarni o'zaro muloqoti uchun zarur so'z va gaplar qamrab olgan. O'qituvchi birinchi guruhga nutqiy materialni konkret fan dasturi bo'yicha tanlaydi. L.M.Bikova 1-sinf "Qo'g'irchoq yasash" mavzusidagi mehnat darsi uchun quyidagi nutqiy materialni tanlaydi. Birinchi guruh fan bo'yicha tushuncha va tasavvurlar: qo'g'irchoq, tana, bosh, yasash, yumshatish, plastilin, qizil, sariq, ikkinchi guruh o'qituvchi va o'quvchilar muloqoti uchun

²³Л.М.Быкова., Е.Е.Вишневская Методика развития речи глухих школьников в младших классах.-Л., 1999.-С. 12-13.

frazeologiya: o'quvchilar: nima yasaymiz? menga plastilin bering, Iltimos menga yordam bering, mening ishimni tekshirib bering, men birinchi yasadim, men o'xshata olmayapman. O'qituvchi: gapir..., iltimos qil..., kimga tushunarsiz..., kim birinchi yasab bo'ldi..., Uchinchi guruh o'quvchilarni o'zaro muloqoti uchun frazeologiya: menga plastilin va suv berib tur, senda sariq plastilin bormi? ishingni ko'rsat, menga yordam ber kabi nutqiy materialni qamrab olishini e'tirof etadi. U ta'kidlashicha, mehnat darslarida nutqiy materialni bunday taqsimlash zaif eshituvchi o'quvchilarda aynan fan o'rganish bo'yicha tushuncha va tasavvurlarni shakllantirib qolmay, balki so'zlashuv nutqini shakllantirish bo'yicha dastur talablari asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish imkonini beradi.

I.Y.Vitola e'tiroficha,²⁴ mehnat darslari mazmunini aniqlashda, buyum yasash va uning ma'noli-nutqiy yo'naltirilishini hisobga olish darkor. M.A.Golovinova ta'kidlashicha, mehnat faoliyatida nutqni rivojlantirishga bolalar tomonidan tuzilgan reja va talabnomalar ijobiy ta'sir ko'rsatadi²⁵ E.E.Rechiskaya o'quvchilar jamoasidagi predmet-amaliy faoliyatda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'zaro muloqoti uchun motivatsiyalashgan shart-sharoit, jamoa faoliyati xarakteriga ko'ra bayon etish, ko'rsatma berish, baxolash vazifalari yuzaga keladi, deb ko'rsatadi.

Shuningdek, maxsus maktablarda mehnat ta'limini tashkil etish va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga rahbarlik qilish masalalariga doir birmuncha tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnat ta'limi muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammo degan xulosaga keldik.

²⁴Сурдопедагогика/ Под рел. М.И.Никитиной. –М.: Просвищение, 1989. -34 с.

²⁵Марциновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. –М. Просвещение ,1992 .-79 с.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari

Maxsus maktablarda mehnat ta'limini tashkil etish va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga rahbarlik qilish masalalariga doir birmuncha tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarni o'rganish va tahlil etish natijasida o'quvchilarni mehnat va kasb-hunarga tayyorlash muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammo degan xulosaga keldik. A.P.Gazova kar bolalarning mehnat ta'limi psixologiyasini tadqiq etgan.U professional – mehnat ta'limi jarayonida ruhiy faoliyat tarkibini, kar bolalarda xarakat, xarakatni boshqarish, o'lchash, malakalarini shakllantirish, mehnat ta'limini nutqiy ta'minlanishi,eshitmaydigan yoshlarni proforientatsiya masalalarini tahlil qilgan. U eshitmaydigan bolalarda turli kasbiy-mehnat malakalarini shakllanitirish dinamikasi,turli simvolikalar ,hususan nutqiy muloqot orqali beriladigan o'quv-ishlab-chiqarish ma'lumotlarini idrok etish sharoiti va o'ziga xos hususiyatlarini o'rgangan.

Ta'lim sohasini rivojlantirishining zamonaviy bosqichida o'quvchilarni ijtimoiy mehnatga jalb qilish vazifasi tobora umumiy va ahamiyatli vazifa sifatida ajratiladi,chunki aynan u zamonaviy maktabni hayot bilan bevosita bog'laydi. B.P.Jiznevskiy, Y.L.Kolominskiy tadqiqotlarida mehnat kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan ijtimoiy foydali mahsulotni yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyat sifatida ta'riflanadi. Bolalarning mehnat faoliyati turlari, uning xususiyatlari, turli yosh davrlarida o'zgarishini tahlil qilish natijasida bolaning rivojlanishida mehnat ham tarbiya, ham ta'lim uchun muhim rol o'ynashiga ishonch hosil qilish mumkin. Aniqlanishicha, mehnat ta'limi mehnat tayyorgarligidan tashqari kasbga yo'naltirish, ijtimoiylashtirish, shaxsning ma'naviy va psixik tomonlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Mehnat ta'limining zarur strukturaviy komponentlari sifatida o'quvchilarning umumiy va maxsus mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o'quvchilarni ma'lum kasblarga yo'naltirish ajratib ko'rsatiladi.

Maktabda mehnat ta'limi utilitar maqsadga yo'naltirilgan va o'quvchilarda ijrochi psixologiyasini shakllantirish tendentsiyasiga ega ekani ko'plab mualliflar tomonidan ta'kidlangan. O'quvchilarning mehnatda o'z-o'zini realizatsiyalashga intilishini tarbiyalash, ularning tajribasini, faol o'rganishga ichki motivatsiyasini boyitishga ko'maklashish mehnat ta'limining dolzarb vazifalari sifatida ajratib ko'rsatiladi. Mehnat ta'limining eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirishdagi rolini tushunish uchun mehnat ta'limi genezisini kuzatish maqsadga muvofiq. P.P.Blonskiy mehnat ta'limi tizimining rivojlanishida asosiy bosqichlar: boshlanish, umumlashtirish bosqichi va hozirgi holat bosqichini farqlash zarurligiga e'tibor qaratadi. Pedagogika fani va maktabning o'quvchilarning mehnat va politexnik tayyorgarligining dastlabki ikki bosqichida to'plagan tajribasidan ko'p narsani maktab rivojlanishining zamonaviy bosqichida ijodiy qayta ishlash va foydalanish mumkin.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, XX asrning 20-yillarida, sho'rolar didaktikasining tiklanish davrida pedagogik jamoatchilik tomonidan etti yillik maktabda mehnat ta'limi, politexnik ta'lim va kasbga yo'naltirish masalalari: shaxsiy sifatlarni shakllantirish va kasbiy ko'nikmalar dinamikasi (M.Y.Basov, A.P.Boltunov, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, A.M.Shcherbakov); o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini maktab amaliyotiga joriy etishning zarurati (F.F.Korolev, T.D.Korneychuk, E.N.Medinskiy, Z.I.Ravkin, Z.S.Ujgina), politexnik ta'lim, ijtimoiy-siyosiy tarbiya hamda maktablarda o'quv-tarbiya ishining ahvoriga oid tomonlari (R.A.Lopatnikov, G.P.Sosnovskaya, A.P.Boltunov) keng muhokama qilingan. Mehnat va politexnik ta'lim muammolari o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, o'quvchilarga ta'lim berishda rasmiyatchilikni bartaraf qilish (V.A.Suxomlinskiy, S.T.Shaskiy va b.) zarurati bilan bog'liq ravishda o'rganilgan. O'tgan asrning 30-50-yillarida mehnat ta'limi o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, maktabning hayot bilan aloqasini,

ayniqsa qishloq maktabi sharoitida, mustahkamlash usuli sifatida qaralgan²⁶(N.M.Golovin, M.Y.Kuprin va b.).

1954-1955 yillarda mehnat ta'limini rivojlantirish borasida ulkan ishlar qilindi, xususan, yangi o'quv dasturi qabul qilindi. Unga boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati, katta sinflarda maktab o'quv-tajriba uchastkalarida mehnat, praktikum kabi predmetlar kiritildi. Bu o'zgarishlar eshitishida nuqsoni bo'lgan (A.P.Gozova, F.A.Rau, I.A.Sokolyanskiy), ko'rishda nuqsoni bo'lgan (S.G.Gellershteyn, M.I.Zemsova, B.I.Kovalenko), aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan (G.M.Dulnev, B.I.Pinskiy, J.I.Jif va b.) bolalarni mehnat ko'nikmalariga o'rgatishda ham o'z aksini topdi²⁷.

Mehnat ta'limining hozirgi bosqichini tavsiflayotib, nazarimizda, ko'rish, eshitish, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarni (V.P.Ermakov, S.L.Mirskiy, E.M.Starobina, S.A.Stasenko, M.B.Pavlova, B.I.Pinskiy, G.N.Penin, N.V.Risev va b.) tilga olish muhim. Olimlar e'tirof etishlaricha, mehnat ustaxonalarida mashg'ulotlar shaxsning jamoada ishlash ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash malakalari, muammoni ko'ra bilish va qaror qilish, axborot olish va foydalanish, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish, ishda yuqori sifatga erishish kabi sifatlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi, shuningdek, funksional savodxonlikni (hisob, og'zaki nutq, grafik ko'nikmalar...) oshirishi kerak. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatishda mehnat ta'limining yangi «ta'lim sohasi» - «Texnologiya»dan foydalanish asosida korrektsion ishlar bilan birlashtirishning yanada samarali yo'llarini izlash tendentsiyalari ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchilar yangi «Texnologiya» integrativ ta'lim sohasini o'rganish o'quvchilarni ijodiy rivojlantirish, masalan, o'quvchilar loyihalari tizimini ko'zda tutadigan istiqbolli yo'nalishlardan foydalanishni nazarda tutadi. Avvalgilaridan farqli o'laroq, mehnat ta'limining yangi tizimida o'quvchilar faoliyatning nafaqat mehnat va texnik, balki

²⁶Специальная педагогика. Под ред. Н.М.Назаровой.– М.: Академия, 2004.– 40 с

²⁷Специальная педагогика. Под ред. Н.М.Назаровой.– М.: Академия, -89б.

iqtisodiy va ekologik jihatlariga, ularning axborot va yuqori texnologiyalar, ishni sifatli bajarish va o‘z-o‘ziga ta’limga tayyorligiga ham e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy jihat – oila an’analari, milliy va mintaqaviy an’analarni, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va saqlashga ham e’tibor beriladi.

Faoliyatga tayyorliklar (yaroqliliklar) uchun dastlab qobiliyatlar ajratiladi. Ular faoliyatni, bizning holatimizda mehnat faoliyatini egallashning muvaffaqiyatligiga ta’sir etadigan individual psixologik xususiyatlar sifatida tushuniladi (V.A.Krutesiky). Olimning ta’kidlashicha, qobiliyatlar individual xususiyatlar sifatida tushuniladi, ularga mazkur faoliyat talablariga javob beradigan va amalga oshirish muvaffaqiyatining shartlaridan biri bo‘lgan aqliy faoliyat, motorika, sensorika xususiyatlari kiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qator qoidalar shakllantirilganki, ularda ta’kidlanishicha, o‘quvchilarda o‘quv motivlarini, bilimlarga ma’lum munosabatni shakllantirish kerak, shu tufayli bilimlar va malakalar ular uchun shaxsiy mazmun kasb etadi (A.N.Leontev, V.V.Davidov, D.B.Elkonin va b.).

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanadiki, umummehnat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishning samaradorligi va tezligi vazifani, faoliyat maqsadlariga erishish shartlari va usullarini anglash darajasi bilan bog‘liq (D.N.Bogoyavlenskiya, N.A.Menchinskaya, L.V.Shvars, E.V.Guryanov). Malakaning takomillashganligi, uning nozikligi va faoliyatning yangi sharoitlariga oson ko‘chirilishi, avvalo, uni shakllantirish usuli bilan belgilanadi (K.K.Platonov, E.V.Guryanov, L.V.Shvars). Malakani shakllantirish jarayoni tafakkur tomonidan boshqariladigan irodaviy harakatdan iborat (D.B.Elkonin)²⁸.

Zamonaviy tadqiqotlarda shu narsaga katta e’tibor qaratiladiki, mehnat jarayonida o‘quvchilar nafaqat o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llaydi, balki atrofdagi voqelik hodisa va predmetlarining yangi xossalarini bilib oladi. Bu ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va konstruktiv malakalarning shakllanishiga ijobiy

²⁸Специальная педагогика. Под ред. Н.М.Назаровой.– М.: Академия, 2004.-67с.

ta'sir ko'rsatadi (L.S.Vigotskiy, E.I.Ignatev, Y.A.Samarin, A.A.Smirnov). Amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi va faoliyat jarayonida o'quvchilarning bilish imkoniyatlari kengayadi, zero ular egallagan, amaliy foydalanish oqibatida uzluksiz tekshiriladigan, bilimlar takomillashadi, mustahkamlanadi, amaliylik kasb etadi va mehnat, o'quv hamda boshqa faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi (N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiy, E.N.Kabanova-Meller, E.A.Meleryan va b.). Shunday qilib, ko'nikma va malakalar inson tomonidan yangi bilimlarning o'zlashtirilishi yo'llari sifatida namoyon bo'ladi, qolaversa, oxirgilari yangi ko'nikma va malakalari shakllanishining zarur omili sanaladi.²⁹ Bizningcha, umummehnat ko'nikma va malakalarining mehnatda mustaqillikning yuqori darajasini shakllantirishdagi rolini ta'kidlash muhim (S.N.Arhangelskiy, E.A.Meleryan, I.S.Yakimanskaya). Maqsad belgilash mehnat topshirig'ida orientirlanish, ya'ni fikriy orientirlar, ularning asosiysi mahsulotning hamma xossalari: shakl, material, mustahkamligini o'z ichiga olgan obraz, bilan uzviy bog'liq (B.F.Lomov, A.V.Yarmolenko).

Tadqiqotimiz uchun olimlarning umummehnat malakalarini shakllantirishning zaruriy sharti – ularning sensor asosini takomillashtirish ekani haqidagi ko'rsatmalari ham muhim. Mehnat faoliyatida ko'rinadigan obrazlar mehnat qurollari va predmetlarining mexanik xossalari va makon xususiyatlarini hissiy aks ettirish natijasida yuzaga keladi. Ular insonning mehnat faoliyatida boshqaruv va mustahkamlovchi vazifani bajaradi (B.G.Ananov, B.F.Lomov, E.A.Meleryan, I.M.Sechenov, A.V.Yarmolenko).

Turli tadqiqotlarda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi o'rganiladi. Bolani badiiy-konstruktorlik faoliyatining faol shakllariga jalb etish uning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishi va rivojlanishining muhim sharti sanaladi (A.N.Misyukevich).

²⁹Воспитательная работа в школе слабослышащих. Из опыта работы сурдопедагогов./ Под ред. Л.В.Никулиной. – М.: Просвещение, 1991.–39

Tajribaga ko'ra mamlakatimizda faol o'rganiladigan xorij olimlari orasida M.Montessori ajralib turadi. G.V.Brijinskaya o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tadiki, Mariya Montessori pedagogik tizimining asosiy g'oyasi pedagog tomonidan yaratilgan makonli-predmetli muhitda erkin mustaqil faoliyat jarayonida o'z ichki salohiyatini tobora to'liq ochib berish imkonini yaratishdan iborat. Tayyorlangan muhit – bolalarni rivojlantirish va o'qitish sharoiti. U har bir bolaga o'z individual sur'atida rivojlanish imkonini beradi. Pedagogning vazifasi, avvalo, o'z-o'zini rivojlantirish vositalarini bola ixtiyoriga taqdim etish va ular bilan qanday muomala qilishni ko'rsatib berishdan iborat. Bu kabi vositalar avtodidaktik, ya'ni o'z-o'zini o'qitish materiallari sanaladi ³⁰.

Mehnatni psixologik o'rganish ko'rsatadiki, ijod mavjud bo'lganlarni yangisini konstruksiyalash yo'li bilan takomillashtirishga intilishda namoyon bo'ladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, konstruksiyalashga o'rgatish jarayonida bolalar bilan aqliy, ma'naviy, estetik va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi, predmetlarni tahlil qilish, xarakterli belgilarini ajratish, shu belgilarga ko'ra qiyoslash malakalari rivojlantiriladi. Fikrlash mustaqilligi, ijod, alohida hodisalar o'rtasida turli aloqadorlik (bog'liqlik) larni aniqlash qobiliyati rivojlantiriladi.

Mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasini ko'rib chiqishda tadqiqotimiz uchun muhimi harakatlarning orientir asosiga e'tibor qaratishdan iborat. Ilmiy isbotlanganki, idrokni bajariladigan topshiriq talablariga bo'ysundirish predmetlarning tegishli xossalari e'tiborni jamlash, ya'ni bu xossalarni harakatlarning orientir asosiga kiritishni ko'zda tutadi (B.G.Anan'ev, A.N.Leontev, B.M.Teshov), bular, o'z navbatida, topshiriqda orientirlashni algoritmlari va ishni rejalashtirishga asoslanadi (M.Ya.Arnoldov, K.K.Platonov).

³⁰Веронова Т.В. Теория и практика коррекционной педагогики. – Минск.: 2007.-29.с.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, faoliyatning standart rejaları turlariga ko'rsatmalar, jumladan harakat algoritmlari kiradi³¹.

N.A.Menchinskaya o'z tadqiqotlarida ko'rsatadiki, bolaning o'rganuvchanligi uning fikrlash xususiyatlari bilan belgilanadi. Har qanday fikrlash jarayoni qator aqliy operatsiyalardan (tahlil, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish) iborat. Ta'kidlanadiki, ularning ko'pchiligi bolalar tomonidan anglashilmaydi, ba'zan ular to'g'risida o'ylab ham ko'rilmaydi. Fikrlash operatsiyalari – o'ziga xos harakatlar, ular avtomatlashtirilgan va yaxlit tizimlarga muvofiqlashtirilgan. Shu sababli ular algoritmlashtirish yordamida yoyilishi mumkin. Fikrlashning operatsion tomonini o'zlashtirishsiz u yoki bu operatsiyani bajarish qoidalarini bilish tamoman foydasiz, zero o'quvchi ularni mustaqil qo'llay olmaydi. Algoritmlashtirish ko'rgazmali-obrazli fikrlashni faollashtirish imkonini berishiga e'tibor qaratiladi³².

Shunday qilib, mehnat jarayonining tashqi izchilligi (ketma-ketligi)ni qurib, uni algoritmlashtirib, uni interiorizatsiyalash, ichki planga tarqalishiga erishish mumkin.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, algoritm deganda, odatda, ma'lum sinfga mansub istalgan vazifani bajarish uchun zarur va etarli bo'lgan intellektual operatsiyalarning ma'lum izchilligining umum uchun tushunarli tavsifi tushuniladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda algoritmning qator ta'riflari mavjud. Masalan, algoritm – bir tipdagi topshiriqlarni bajarish uchun qat'iy o'rnatilgan tartibda bajariladigan operatsiyalarning jami.

Tadqiqotlarda algoritm «... ixtiyoriy boshlang'ich ma'lumotdan boshlanadigan... va shu ma'lumot bilan to'liq belgilanadigan natijani olishga qaratilgan hisoblash jarayonini beradigan aniq ko'rsatma» sifatida ta'riflanadi. Masalan, M.G.Sorokovanning M.Montessorining pedagogik ijodi tahliliga

³¹Веронова Т.В. Теория и практика коррекционной педагогики. – Минск.: 2007.-29.с.

³²Воспитательная работа в школе слабослышащих. Из опыта работы сурдопедагогов./ Под ред. Л.В.Никулиной. – М.: Просвещение, 1991.–67.б.

bag'ishlangan tadqiqotlarida M.Montessori tizimida topshiriqlarning algoritmik qurilishiga alohida e'tibor qaratiladi va quyidagicha ta'rif beriladi: algoritm operativ mantiqiy strukturaga ega, bu «murakkab» harakatda nisbatan «soda»larini bajarish, uni «qadam»larning izchilligi ko'rinishida taqdim etishni ko'zda tutadi.

Fikrimizcha, algoritmning quyidagi ta'rifi nisbatan to'liq: «algoritm – qaysidir sinfga mansub bo'lgan istalgan topshiriqni bajarish uchun elementar operatsiyalarni ma'lum izchillikda bajarishga ko'rsatma va unlarni bajarish».

Ilmiy isbotlanganki, algoritm qurishga o'rgatishning birinchi bosqichida harakatning orientir asosi (HA) shakllantiriladi. Unda ikki asosiy komponent: tushunchalarga birlashtiriladigan hodisalarning asosiy strukturasi sxemasi va uni mazkur hodisalarda tanib olish yoki shu sxema bo'yicha qayta yaratish bo'yicha harakatlar algoritmi. Bu komponentlar ishlash uchun qulay moddiylashtirilgan ko'rinishda (odatda, o'quv xaritasida, ammo majburiymas) taqdim etiladi. Shunday qilib, bolaga avval boshdan u egallashi kerak bo'lganning aniq namunasi beriladi. Bu namuna o'quvchi faoliyatida qurol, shakllantiriladigan harakatlar va tushunchalarning karkasiga aylanadi. Algoritmni tobora umumiy ko'rinishda hal qilinayotgan muammoning jiddiy munosabatlarida orientirlanishga o'rgatish tizimi deb atash mumkin.

Ikkinchi bosqichda moddiylashtirilgan ko'rinishdagi HA topshiriqlar tizimini hal qilish uchun ishlatiladi. Bu bosqichda sxema va algoritm birinchi marta bolaning tushuncha va harakatlariga aylanadi. Topshiriqlar shunday tartibda tanlanadi va taqdim etiladiki, harakatlar va tushunchalar muntazam ravishda ma'lum hajmda umumlashtirilsin (P.Y.Galperin).

Uchinchi bosqichda o'quv xaritasidan foydalanilmaydi, ammo unda qayd etilgan har bir ko'rsatma aytib turiladi va orientirlash og'zaki shaklda (so'zlar topshiriqlarning butun diapazonida) bajariladi. Bu ijtimoiylashtirilgan nutqda harakat ob'ektiv tarzda fikr va mulohaza shaklini qabul qiladi. U etarli darajada tez va xatosiz bo'lganida, u «o'zi haqida tashqi nutq» planiga o'tadi va aqliy harakatga aylanadi.

Olimlar ta'kidlaydiki, algoritmlarga o'rgatish ularni yod olishga teng emas. U mustaqil kashfiyotlarni ham, algoritmlar qurishni ham nazarda tutadi, ya'ni ijodiy jarayon sanaladi (P.Y.Galperin, R.M.Granovskaya). algoritm o'quv jarayonini tizimlashtiradi, shu sababli «algoritmlar – ta'limni murakkablashtiradigan qandaydir dasturust material» degan fikr haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Ta'limda qo'shimcha yuklama va qiyinchiliklar o'quvchining aqliy faoliyati ma'lum tartib va tizimga keltirilganida emas, balki bu tartib va tizim mavjud bo'maganida yuzaga keladi.

Shunday qilib, algoritmlashtirish ijodiy fikrlashga o'rgatishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'plab zarur malaka va avtomatlashtirilgan harakatlar mavjudki, ular amalda ongning nazoratisiz bajarilishi kerak. Bu kabi harakatni egallab, bola topshiriqni bajarish jarayonini nazorat qilish zaruratidan xoli bo'ladi, nazoratni natija sifatiga ko'chiradi. Shu sababli bolaning ijodiy faoliyati uchun mustahkam asoslarni yaratib, uning tajribasini boyitish kerak. Yaratish istagi bolada spontan ravishda yuzaga keladi, biroq uni doimiy rag'batlantirish, muvaffaqiyat vaziyatini yaratish kerak, buni esa topshiriq bolaga tushunarli bo'lgshandagina qilish mumkin bo'ladi. Erkinlik va ijod rang-barang usullarga o'rganish imkonini nazarda tutadi. Shu sababli kata yoshdagi kishining vazifasi – bolani ijodiy jarayonga takt bilan olib kirish.

Yuqoridagi aytilganlarning hammasi amaliy ishda qo'llash vaqtigacha saqlanishi mumkin bo'lgan mustahkam va barqaror malakalarni shakllantirish zarurligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoni o'quvchining har tomonlama rivojlanishida muhim omillardan biri sanaladi. Turli tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, mehnat ta'limi nafaqat ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, mavjud tasavvurlarni aniqlashtirishga ko'maklashadi, balki sabab-oqibat bog'liqliklari va munosabatlarini aniqlashtirish uchun sharoit yaratadi. O'quvchilarning materialni ko'rgazmali-namoyishli o'zlashtirish jarayonida olingan bilimlari bilan amaliy faoliyatda olingan bilimlari o'rtasida

ma'lum tafovut mavjud. Eksperimental isbotlanganki, mehnatning pedagogik qimmatini o'quvchi bevosita texnik faoliyat jarayonida olganidan iborat.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, predmetli-amaliy faoliyat konstruktiv, tasviriy, mehnat va boshqa faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar faoliyatning mazkur turlari bolaning barkamol rivojlanishi uchun o'zaro ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotimiz o'quvchilarning bir toifasi – eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini modellashtirish vositalarini o'z ichiga olgan yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida amalga oshirildi. Shu sababli mehnat ko'nikma va malakalarini hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar mehnat ta'limi metodikasida ularni shakllantirishga yondashuvlarni tahlil qilish zarur, deb bildik

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni umumtexnik mehnat tayyorgarligiga poydevor qo'yiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi o'quvchilarning mehnat jarayonida bevosita va ma'lum bir tizimda ishtirok etish ta'limining bu bosqichida o'qishga ongli yondashishni, shaxsni aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashda juda zarur bo'lgan omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi o'quvchilarining yagona ta'lim – tarbiya rivojlanish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.³³

Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limini takomillashtirish, maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi muammosi nazariy metodologik asosga ega bo'lsa, mehnat ta'limiga o'rgatishda o'quv fanlari mazmuni psixologik, pedagogik asoslari aniqlansa, mehnat ta'limi pedagogik texnologiya va interfaol usullar asosida tashkil etilsa, maxsus maktabda mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligi talab darajasida bo'lsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat

³³Воспитательная работа в школе слабослышащих. Из опыта работы сурдопедагогов./ Под ред. Л.В.Никулиной. – М.: Просвещение, 1991.–97

ta'limining samarali usullari, qulay shart-sharoitlar yaratilsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi o'qituvchilar uchun ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida olib borilsa, mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'limi samaradorligi ortadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Muammo bo'yicha adabiyotlarini taxlili shuni ko'rsatdiki, maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish mavzusi O'zbekiston Respublikasida muammo sifatida ilmiy tomondan o'rganilmaganligi aniqlandi..Mehnat ta'limi kar va zaif eshituvchilarning mahsus ta'limini bir bo'lagi sifatida o'quvchilarda mehnatga nisbatan javobgarlik hissini tarbiyalash, jamoada ishlashni o'rganish, mustaqillikni namoyon etish, mehnat yutuqlariga erishishga intilish, o'z-o'zini tanqidiy baholash; jismoniy, aqliy va nutqdagi nuqsonlarni korrektsiyalashga yordam berish; o'quvchilarda mehnat bilimlarini, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlash kabi qator ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal etishga mo'ljallangan. Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limini takomillashtirish, maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi muammosi nazariy metodologik asosga ega bo'lsa, mehnat ta'limiga o'rgatishda o'quv fanlari mazmuni psixologik, pedogogik asoslari aniqlansa, mehnat ta'limi pedagogik texnologiya va interfaol usullar asosida tashkil etilsa, maxsus maktabda mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligi talab darajasida bo'lsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limining samarali usullari, qulay shart-sharoitlar yaratilsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi o'qituvchilar uchun ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida olib borilsa, mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'limi samaradorligi ortadi.

II BOB. MAXSUS MAKTABDA MEHNAT DARSLARIDA BILIM, KO'NIKMA, MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH XOLATINI O'RGANISH METODIKASI

1. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish

Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish o'quvchilarda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarish, mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga oid zarur tavsiya va takliflar berish imkonini beradi. Pedagogik amaliyotda muammoni holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish xolatini eksperimental o'rganish o'zida mujassamlashtirgan tadqiqotni o'tkazishdan iborat bo'ldi. Tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumani 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 20 nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning ishtirokida o'tkazdik. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida S.I.Fomichev metodiksidan foydalandik³⁴ Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Belgilangan vazifalarga muvofiq ravishda tadqiqot mavzusiga doir ilmiy va metodik adabiyotlar yuzasidan ma'lumotlarni o'rganish;

-Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish xolatini o'rganish.

³⁴Фомичев С.И. Формирование трудовых умений и навыков у школьников с недоразвитием интеллекта на основе конструктивной деятельности: Пед. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2003. - 60 б

Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini eksperimental yo'nalishda tadqiq etish rejalashtirildi. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqot 3-sinf o'quvchilarining mehnat malakalari va mazkur ish faoliyatlarida muloqotga kirishish malakasini tekshirdik. Mehnat darslarida mazkur kategoriyadagi bolalarni bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutdi:

- Mehnat darslarida mazkur kategoriyadagi bolalarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

- Maxsus maktabda mehnat darslarining potentsial imkoniyatlarini belgilash;

- Mehnat darslarida mazkur kategoriyadagi bolalarda konstruktorlash bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

- Mehnat darslarida mazkur kategoriyadagi bolalarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonida predmet-amaliy faoliyat xususiyatlarini aniqlash;

Tadqiqot jarayonida mehnat darslarida mazkur kategoriyadagi bolalarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonini kuzatish, individual-psixologik pedagogik eksperiment, metodlaridan foydalandik. Ta'kidlovchi eksperiment sakkizta topshiriq majmuasidan iborat bo'lib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda mehnat darslaridagi faoliyat uchun zaruriy lug'at boyligini aniqlash, material namunalarni shakli bo'yicha farqlash, o'lchov asboblardan foydalanish, grafik namunaga ko'ra konstruktorlash bilim, ko'nikma, malakalarni aniqlashga qaratilgan.

Ta'kidlovchi eksperiment jarayonida o'quvchilarning mehnat materiallari, mehnat qurollari, detallar, mehnat faoliyati ketma-ketligi bo'yicha barcha nutqiy murojaatlari bayonnomaga qayd qilindi. Topshiriqlar majmuasi xarakteri va maqsadiga ko'ra farqlandi:

1-Topshiriq: Mehnat faoliyati predmetlari haqidagi bilimlarni aniqlashga qaratilgan.

2-Topshiriq: Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug‘at boyligining holatini aniqlashga qaratilgan.

3-Topshiriq: Mehnat quroli haqidagi tasavvurlarni aniqlashga qaratilgan.

4-Topshiriq: Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

5-Topshiriq: Nutqiy ko‘rsatma bo‘yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlashga qaratilgan.

6-Topshiriq: Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlashga qaratilgan.

7-Topshiriq: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yig‘ish malakasini aniqlashga qaratilgan.

8-Topshiriq: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish malakasini aniqlashga qaratilgan.

1-Topshiriq:

Maqsad: Mehnat faoliyati predmetlari haqidagi bilimlarni aniqlash

Jihoz: Karton

Tadqiqot jarayoni: O‘quvchiga karton qog‘ozi beriladi, va uni tavsiflab berish so‘raladi.

Ko‘rsatma: “Kartonni diqqat bilan qarab chiq. Uni burchaklarini sanab chiq.”

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog karton qog‘ozi burchaklarni qo‘li bilan ko‘rsatadi va bolaga shu xarakat takrorlashni taklif etadi.

2-Topshiriq:

Maqsad: Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug‘at boyligini holatini aniqlash

Jihoz: Karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari yozilgan kartochkalar

Tadqiqot jarayoni: O'quvchiga karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari yozilgan kartochkalar beriladi va shu so'zlar ishtirokida gap tuzish so'raladi.

Ko'rsatma: "Karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari ishtirokida gap tuz" karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari yozilgan kartochkalar beriladi va shu so'zlar ishtirokida gap tuzish Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlaridan biri ishtirokida gap tuzib beradi va shu xarakatni takrorlash taklif etiladi.

3-Topshiriq:

Maqsad: Mehnat quroli haqidagi tasavvurlarni aniqlash

Jihoz: Qaychi, qalam, yelim, chizg'ich

Tadqiqot jarayoni: O'quvchiga qaychi, qalam, yelim, chizg'ich beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash so'raladi.

Ko'rsatma: "Mehnat qurollarini diqqat bilan qarab chiq va ular nima uchun ishlatilishini aytib ber".

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga Mehnat qurollarni birini nomlab, tavsiflab beradi va shu xarakatni takrorlashni taklif etiladi.

4-Topshiriq:

Maqsad: Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash

Jihoz: Doira, uchburchak, to'rtburchak, silindir geometrik shakllari

Tadqiqot jarayoni: O'quvchiga geometrik shakllar beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash so'raladi.

Ko'rsatma: "Geometrik shakllarini diqqat bilan qarab chiq va ularni nomlanishini aytib ber. O'quvchilar barcha geometrik shakllarni nomlab bo'lgach,

pedagog “Endi, geometrik shakllarini olib, ularni nomlanishini geometrik shakllar yasalgan kartonlarning orqa tomoniga yozib chiq.”

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga geometrik shakllarning birini nomlab, tavsiflab beradi va shu xarakatni takrorlashni taklif etadi.

5-Topshiriq:

Maqsad: Nutqiy ko‘rsatma bo‘yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash

Jihoz: Karton, qaychi, qalam, yelim, chizg‘ich, o‘chirg‘ich

Tadqiqot jarayoni: O‘quvchiga namuna asosida kartondan quti yasash topshirig‘i beriladi.

Ko‘rsatma: “Namunani diqqat bilan qarab chiq va berilgan o‘lcham asosida kartonga quti andozasini chiz. So‘ngra quti andozasini qirqib olib, quti chetlarini yelimlab chiq”.

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga mehnat faoliyati ketma-ketligini ko‘rsatib beradi va xarakatlarni takrorlashni taklif etadi.

6-Topshiriq:

Maqsad: Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash

Jihoz: Karton, qaychi, qalam, yelim, chizg‘ich, o‘chirg‘ich

Tadqiqot jarayoni: O‘quvchiga namuna asosida kartondan quti yasashni mustaqil rejalashtirish topshirig‘i beriladi.

Ko‘rsatma: “Kartondan quti yasash rejasini tuzib chiq”.

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga kartondan quti yasash rejasini ko‘rsatib beradi va xarakatlarni takrorlashni taklif etadi.

7-Topshiriq:

Maqsad: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yig‘ish malakasini aniqlash

Jihoz: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallari

Tadqiqot jarayoni: O‘quvchiga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash topshirig‘i beriladi.

Ko‘rsatma: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasa.”

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib beradi va xarakatlarni takrorlashni taklif etadi.

8-Topshiriq:

Maqsad: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish malakasini aniqlash

Jihoz: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallari

Tadqiqot jarayoni: O‘quvchiga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash topshirig‘i beriladi.

Ko‘rsatma: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasa.”

Topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelganda pedagog bolaga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib beradi va xarakatlarni takrorlashni taklif etadi.

Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot 3-sinf o‘quvchilarini mehnat malakalari va mazkur ish faoliyatlarida muloqotga kirishish malakasini tekshirdik.

Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning holatini o‘rganish quyidagi mezonlar asosida baholandi:

Topshiriqni to‘g‘ri bajardi

Topshiriqni pedagog yordami asosida bajardi

Topshiriqni bajara olmadi

2. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish natijalari

Pedagogik amaliyotda muammoni holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish xolatini eksperimental o‘rganish o‘zida mujassamlashtirgan tadqiqotni o‘tkazishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning ishtirokida o‘tkazdik. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida S.I.Fomichev metodikasidan foydalandik Ta‘kidlovchi eksperiment sakkizta topshiriq majmuasidan iborat bo‘lib, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda mehnat darslaridagi faoliyat uchun zaruriy lug‘at boyligini aniqlash, material namunalarini shakli bo‘yicha farqlash, o‘lchov asboblardan foydalanish, grafik namunaga ko‘ra konstruktorlash bilim, ko‘nikma, malakalarni aniqlashga qaratilgan.

1-Topshiriq: Mehnat faoliyati predmetlari haqidagi bilimlarni aniqlash topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchiga karton qog‘ozi berildi va uni tavsiflab berish so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 10 (50%) nafari mazkur vazifani mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 8 (80%) nafari pedagog karton qog‘ozlarining burchaklarini qo‘li bilan ko‘rsatib, bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 2 (20%) nafari kartonni diqqat bilan qarab chiqib, uning burchaklarini sanab chiqish vazifasini bajara olmadi.

2-Topshiriq: Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug‘at boyligining holatini aniqlash topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchiga karton, qaychi, qalam, yelim, chizg‘ich, o‘chirg‘ich so‘zlari yozilgan kartochkalar berildi va shu so‘zlar

ishtirokida gap tuzish soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 3 (30%) nafari karton, qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlari ishtirokida gap tuzdi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 8 (80%) nafari pedagog bolaga karton, qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlaridan birini ishtirokida gap tuzib berib, bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etilgandan soʻng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 9 (90%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlari ishtirokida gap tuzish vazifasini bajara olmadi.

3-Topshiriq: Mehnat quroli haqidagi tassavurlarni aniqlash topshirigʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga qaychi, qalam, yelim, chizgʻich beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 3 (30%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻichni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 8 (80%) nafari pedagog bolaga Mehnat qurollaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan soʻng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 9 (90%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻichni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini bajara olmadi.

4-Topshiriq: Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash topshirigʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga geometrik shakllari beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 3 (30%) nafari geometrik shakllari nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 8 (80%) nafari pedagog bolaga geometrik shakllaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan soʻng

mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 9 (90%) nafari geometrik shakllarni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini bajara olmadi.

5-Topshiriq: Nutqiy ko'rsatma bo'yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga namuna asosida kartondan quti yasash topshirig'i berildi. Ko'rsatma: "Namunani diqqat bilan qarab chiq va berilgan o'lcham asosida kartonga quti andozasini chiz. So'ngra quti andozasini qirqib olib, quti chetlarini yelimlab chiq". Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 10 (50%) nafari kartondan quti yasash vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 8 (80%) nafari pedagog bolaga kartondan quti yasashni ko'rsatib berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2 (20%) nafari kartondan quti yasash vazifasini bajara olmadi.

6-Topshiriq: Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga namuna asosida kartondan quti yasashni mustaqil rejalashtirish so'raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 10 (50%) nafari kartondan quti yasash rejasini tuzish vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 8 (80%) nafari pedagog bolaga kartondan quti yasash rejasini ko'rsatib berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2(20%) nafari kartondan quti yasash rejasini tuzish vazifasini bajara olmadi.

7-Topshiriq: "Qishloq xo'jaligi mashinalari" konstruktori detallarini namuna asosida yig'ish malakasini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga "Qishloq xo'jaligi mashinalari" konstruktori detallaridan qishloq xo'jaligi mashinasini yasash so'raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi

o‘quvchilarning 10 (50%) nafari “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 10 (50%) nafari pedagog bolaga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi.

8-Topshiriq: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish malakasini aniqlash topshiriq‘ini bajarish jarayonida o‘quvchilardan “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 10 (50%) nafari “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 9 (90%) nafari pedagog bolaga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi. 20 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 1 (10%) nafari “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini bajara olmadi.


3-sinf zaif eshituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini tekshirish natijalari

1-jadval

№	Topshiriqning mazmuni	O‘quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni pedagog yordami asosida bajardi	Topshiriqni bajara olmadi

1	Mehnat faoliyatining predmetlar haqidagi bilimlarini aniqlash	20(100%)	10(50%)	8(40%)	2(10%)
2	Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug‘at boyligining holatini aniqlash	20(100%)	3(15%)	8(40%)	9(45%)
3	Mehnat quroli haqidagi tasavvurlarni aniqlash	20(100%)	3(15%)	8(40%)	9(45%)
4	Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash	20(100%)	3(15%)	8(40%)	9(45%)
5	Nutqiy ko‘rsatma bo‘yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash	20(100%)	10(50%)	8(40%)	2(10%)
6	Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash	20(100%)	10(50%)	8(40%)	2(10%)
7	“Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yig‘ish malakasini aniqlash	20(100%)	10(50%)	10(50%)	-
8	“Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish	20(100%)	10(50%)	9(45%)	1(5%)

Ta'kidlovchi eksperimentning natijalari



Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Maxsus maktabda o'quvchilarni mehnat tarbiyasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini eksperimental o'rganish o'quvchilarini mehnat tarbiyasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarish imkonini berdi. Pedagogik amaliyotda muammoni holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish xolatini eksperimental o'rganish o'zida mujassamlashtirgan tadqiqotni o'tkazishdan iborat bo'ldi. Tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 20 nafar zaif eshituvchi o'quvchilarining ishtirokida o'tkazdik. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni

shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida S.I.Fomichev metodikasidan foydalandik Ta'kidlovchi eksperiment sakkizta topshiriq majmuasidan iborat bo'lib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda mehnat darslaridagi faoliyat uchun zaruriy lug'at boyligini aniqlash, material namunalarini shakli bo'yicha farqlash, o'lchov asboblaridan foydalanish, grafik namunaga ko'ra konstruktorlash bilim, ko'nikma, malakalarni aniqlashga qaratilgan. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotning jarayonida o'quvchilarda mehnat tarbiyasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini talab darajasida rivojlanmaganlining guvohi bo'ldik.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ilmiy asoslangan korreksion-pedagogik tizim va uni o'rgatish bo'yicha maxsus uslubiyat ishlab chiqilmaganligi zaif eshituvchi bolalar bilim, ko'nikma va malakalarni talab darajasida shakllanmaganligining asosiy sabablaridandir.

Tildan kommunikatsiya maqsadlarida foydalanish, maxsus o'qitishda nutq faoliyatining bosqichlarini farqlash, maxsus pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi, muloqotga ehtiyoj tug'diruvchi muammoli vaziyatlarni hosil qilish, tabiiy vaziyatlar va didaktik o'yinlardan foydalanish, maxsus ravishda tanlab olingan va tizimlashtirilgan nutq materialini asosida ish olib borish; til o'qitishning ko'rgazmali vositalarini keng jalb etish, nutqning xilma-xil turlari, shakllari va usullaridan tartibga solingan tarzda foydalanish, o'quvchilar nutqining holatini muntazam o'rganish jarayonida olinadigan ma'lumotlarni hisobga olish asosida o'qitishni tashkil etish mehnat malakalarini amaliy egallashda muhim omillardandir. Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limini takomillashtirish, maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi muammosi nazariy metodologik asosga ega bo'lsa, mehnat ta'limiga o'rgatishda o'quv fanlari mazmuni psixologik, pedagogik asoslari

aniqlansa, mehnat ta'limi pedagogik texnologiya va interfaol usullar asosida tashkil etilsa, maxsus maktabda mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy metodik tayorgarligi talab darajasida bo'lsa, maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limining samarali usullari, qulay shart-sharoitlar yaratilsa, mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'limi samaradorligi ortadi.

III BOB. MAXSUS MAKTABDA MEHNAT DARSLARIDA BILIM, KO'NIKMA, MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

1. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning tamoyillari

Biz o'z oldimizga maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish tizimini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ygan edik. Bu maqsadimizni amalga oshirishimizda 3-sinflar uchun X.Kalbaeva, Z.Mamarajabova tomonidan tayyorlangan Zaif eshituvchi o'quvchilar maxsus maktablari uchun mehnat ta'limi bo'yicha Davlat ta'lim standarti va dasturi asos bo'lib xizmat qildi. Maxsus uslubiyatning umumiy tamoyillari umuman maxsus pedagogik jarayon tuzilishini belgilaydi, ularni amalga oshirish til o'qitishning barcha vazifalarini hal etishni ta'minlaydi. Xususiy tamoyil mehnat ta'limi bo'yicha qilinadigan ishlarning tuzilishiga oid uslubiy talablarni belgilaydi. Ushbu tamoyillarda til tizimidagi har bir komponentning o'ziga xosliklari, zaif eshituvchilar tildagi leksika, grammatika, nutqning og'zaki va yozma turlari va shakllarini o'zlashtirishlarining psixologik xususiyatlari aks etadi.

Mehnat ta'limi umumdidaktik va maxsus tamoyillaridan kelib chiqqan holda biz zaif eshituvchi bolalarga mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tamoyillarni quyidagi tartibda berdik:

1. Mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi tamoyili;

2. Mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishda ta'lim mazmunining insonparvarlik tamoyili;

3. Mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga tayanish tamoyili;

4. Mehnat darslarida bilim, malaka, ko‘nikma shakllantirishda kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili, nutqni tildan kommunikasiya maqsadlarida, ya’ni matndagi (fikr-mulohazalardagi) ma’lum qilinayotgan (qabul qilinayotgan, qayta ishlanayotgan) axborot yordamida o‘zaro tushunishni yo‘lga qo‘yish uchun foydalanishdan iborat faoliyat deb tushunishga tayanadi. Bu tamoyil o‘zlashtirish davomida muloqot funktsiyasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

Didaktik jihatdan kommunikatsiya tamoyili nutqni muloqot vositasi va fikrlash quroli sifatida shakllantirish maqsadidan kelib chiqadi. U til o‘qitish jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlashi lozim. Bu tamoyil til materialini qo‘llash jarayonida undan (bevosita va bilvosita, o‘qish va yozish tarzida) muloqot qilish, atrof dunyo to‘g‘risida bilim orttirish maqsadida foydalanish jarayonida o‘zlashtiriladi.

Kommunikatsiya tamoyili maxsus maktabda o‘qitishning dastlabki paytida zaif eshituvchi bolaning deyarli mutlaqo nutqi bo‘lmagan hollarda ayniqsa izchil ifodalanadi. Nutqi nisbatan shakllangan zaif eshituvchi bolalarda kommunikatsiya tamoyili nutqni tuzatish, rivojlantirish va takomillashtirish talabi bilan qo‘shilib namoyon bo‘ladi. Tilni amaliy o‘zlashtirib, undan keyingina uni fan sifatida o‘rganishga kirishish mumkin. Biroq keyinchalik ham nutq rivojidadagi kamchiliklarning o‘rnini to‘ldiradigan katta ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Nutqning rivojlanmaganligi semantik (ma’noviy) tusdaligi hisobga olinib, til o‘qitishdagi kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili o‘quvchilarning ongini atrof dunyo to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalar bilan boyitib boradi, ularning nutqini fikrlashining mazmuniy tomonini rivojlantirish bilan uzviy ravishda bog‘lagan holda o‘stiradi.

5. Zaif eshituvchi bolalar passiv va aktiv nutqni o'zlashtirishlaridagi izchillik ularning nutqini o'stirishda alohida rol o'ynashini hisobga olgan holda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishda nutq faoliyatining reproduktiv, rekonstruktiv va produktiv jihatlarini va bosqichlarini farqlash tamoyili qo'llanildi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarning nafaqat fikr-mulohaza tuzishda, balki o'zgalik fikr-mulohazalarini qabul qilish va tushunishda qiynalishlari tadqiqotda aniqlandi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish nutq faoliyatining barcha tomonlariga (yoki nutq harakatining barcha komponentlariga: qabul qilishga, tushunishga, so'zlashishga) maxsus uslubiy yondashuvlarni talab qiladi.

6. O'quvchilar til qonuniyatlarini anglagan holda o'zlashtirishlari asosida nutq ko'nikmalarini avtomatlashtirish tamoyili, mazkur tamoyilni amalga oshirish tilni maxsus o'qitishda, normal rivojlanuvchi bolalarda yuzaga keladigan tilni o'zlashtirishdagi psixologik shart-sharoitlar yo'qligining o'rnini bosishini ta'minlaydi.

7. Maxsus ravishda tanlab olingan, tashkil qilingan va uslubiy jihatdan ishlangan material asosida shakllantirish tamoyili. Ushbu tamoyil zaif eshituvchi o'quvchilar taqlid qilish, faol ravishda qayta ishlash va o'zlashtirish uchun til materiali olib turishlari kerak bo'lgan sun'iy nutq muhitini yaratish oqibatidir.

8. Mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonini tezlashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish tamoyili. Maxsus maktabga ilk bor o'qishga kelgan zaif eshitadigan bolalarda til umumlashmalari mavjud emas, shakllanmagan yoki juda past darajadadir. O'qitishning maxsus ravishda tashkil qilingan sharoitlarida nutqiy muloqot amaliyotining o'zi zaif eshituvchi bolalarda to'la qiymatli til umumlashmalarini hosil qilish uchun etarli bo'lmaydi. Shu sababli dialog, og'zaki va yozma monolog nutqi shaklidagi nutq amaliyotini mumkin qadar boyitish uchun sharoit yaratishga, o'quvchilarda fonetik, leksik va grammatik umumlashmalarni

shakllantirishni tezlashtirishga va ularni rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan alohida mashgʻulotlarni kiritish koʻzda tutilgan. Aslida bu mashgʻulotlar ham nutq amaliyotidir. Lekin maxsus ravishda tanlab olingan fonetik, leksik va grammatik material asosida alohida tarzda tuzilgan mashqlar tizimi shaklida tashkil qilingan nutq amaliyotidir.

Maxsus mashgʻulotlar tizimidan foydalanish orqali til umumlashmalari barcha darslarda va darsdan tashqari mashgʻulotlarda xilma-xil nutq amaliyoti davomida mustahkamlanadi.

9. Eshitish qoldiqlaridan keng miqyosda foydalanishga tayanish tamoyili. Bunda oʻtiladigan (yoki takrorlanadigan) material ekran ortidan quloqning oʻziga yoki eshitishni kuchaytirib beruvchi apparatlar yordamida beriladi.

10. Oʻquvchilar nutqining holatini muntazam oʻrganish jarayonida olinadigan maʼlumotlarni hisobga olish asosida oʻqitishni tuzish tamoyili. Bu tamoyilga rioya etilmasa, pedagogik jarayonni tuzish oʻzining konkretligini yoʻqotadi, oʻqituvchi uni boshqarish imkoniyatidan mahrum boʻladi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida zaif eshituvchi bolalar mehnat darslarida bilim, koʻnikma, malakalarni shakllantirish tizimi ishlab chiqildi va dastur, darslik, yillik rejalashtirishlar shaklida ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi. (1-ilova).

Taʼlim mazmunining oʻzagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat koʻrsatayotgan turli muassasalarda taʼlimning barqaror darajasini taʼminlash sharti amalga oshiriladi. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti oʻz mohiyatiga koʻra oʻquv dasturlari, darsliklar, qoʻllanmalar, nizomlar va boshqa meʼyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Zaif eshituvchi oʻquvchilar maxsus maktablari uchun mehnat taʼlimi boʻyicha Davlat taʼlim standarti va Dasturning belgilovchi xususiyatlari (umumiy maqsadga yoʻnaltirilganlik, tuzilishi, material tanlab olish va qobiliyatlar, koʻnikmalar, bilimlarga va ularni oʻzlashtirishdagi izchillikka qoʻyiladigan talablar hajmini

belgilash) o‘qitishning asosiy maqsadiga – Mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga erishishga qaratildi. Mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bo‘yicha davlat ta’lim standarti va dasturi bo‘yicha Mehnat ta’limi fanidan o‘quvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

- Mehnat faoliyati mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- Mehnat faoliyati, mehnat ish qurollari, materiallarining nomlanishi va qo‘llanilishi;
- Qayd qilingan mehnat qurollari bilan ishlashda mehnat xavfsizligi va shaxsiy gigenasiga rioya qilish, namuna asosida buyum tayyorlash.
- Mehnat turlari bo‘yicha texnologik harakatlar bajarish, o‘z mehnatini rejalashtirish va tashkil etish;
- O‘z mehnat faoliyati bo‘yicha talabnoma, reja va hisobot tuza olish;
- Kasb-hunarlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish;
- Xalq ho‘jaligi, ishlab chiqarish va hizmat ko‘rsatish sohalari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish;
- Turli materiallarga boshlang‘ich badiiy ishlov berish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- Buyumni texnologik xaritasini tayyorlash ko‘nikmasiga ega bulish;
- Zaif eshituvchi o‘quvchilarning yaratuvchilik ko‘nikmasini shakllantirish;
- Kundalik hayotda zarur bo‘ladigan duradgorlik, chilangarlik, bichish-tikish, qishloq xo‘jalik mehnatiga oid boshlang‘ich ishlarni bajara olish;
- Mehnat qurollarini xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilgan holda ishlatish;
- Oila iqtisodiyoti, uy-ro‘zg‘or madaniyati haqida dastlabki ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- O‘zbekiston Respublikasidagi kasb-hunarlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;

- Ayrim kasblar bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikma, malakalariga ega bo'lish.

Mazkur Davlat ta'lim standartida maxsus o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi tayanch mazmuni mehnat va kasb tanlashga tayyorgarlik darajasining me'yorlari ifodalanadi.

Ushbu standart maxsus o'rta ta'lim maktablari uchun mehnat ta'limi fanidan o'quv dastur, darslik, qo'llanma va boshqa rasmiy me'yoriy materiallarini ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun asos sifatida hizmat qiladigan me'yoriy hujjatdir.

Mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha davlat ta'lim standarti va dasturi bo'yicha mehnat ta'limining maqsadi zaif eshituvchi o'quvchilarni bilish faoliyati harakat ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zda tuzuvchi mehnat shakllari hamda kasb turi bilan tanishtirish, ularda boshlang'ich mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarlikni amalga oshirish hamda jamiyat farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga shart sharoit yaratuvchi o'quvchi nutqi, xarakter xususiyati va tafakkurini rivojlantirishdan iborat.

Mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha davlat ta'lim standarti va dasturi bo'yicha mehnat ta'limining vazifalari: Zaif eshituvchi o'quvchilarida mehnatsevarlik, mehnatkashlarga hurmat, ijtimoiy mulkka extiyotkorlik va tejamkorlik munosabatida bo'lish kabi hislatlarni tarbiyalash;

Zaif eshituvchi o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga kerak bo'ladigan asosiy mehnat madaniyatini, boshlang'ich bilim va malakalarini shakllantirish;

Zaif eshituvchi o'quvchilarda ma'naviy ma'rifiy, ahloqiy, estetik, jismoniy tarbiyalash;

Zaif eshituvchi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish

Zaif eshituvchi o'quvchilar xayotida zarur bo'ladigan turli xil xomashyo bilan qo'l mehnati usullarini, qishloq xo'jaligi o'simliklarni o'stirish, o'quv-ko'rgazmali qurollarni ta'mirlash, maktab, bog'cha, uy uchun foydali bo'lgan turli xil predmetlarni, o'yinchoqlarni yasashni o'rgatish;

Zaif eshituvchi o'quvchilarga turli kasb sohalari mazmuniga taaluqli boshlang'ich ma'lumotlarni shakllantirish, o'lchash-tekshirish asboblaridan, ma'lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarish, o'zgartirish o'z fikrini og'zaki bayon etishga o'rgatish;

Zaif eshituvchi o'quvchilarga xalq ho'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan texnika va texnologiyalar to'g'risida bilimlar berish, turli kasb sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish;

Mexanizm va kasb-xunarga yo'naltirish asbob vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etish;

Zaif eshituvchi o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari etishtirish va etishtirilgan mahsulotlarni iste'molchilarga etkazish vositalarini o'rgatish, ish boshqaruv (menejerlik) unsurlari, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirib borish;

Zaif eshituvchi o'quvchilar bilimiga intilish va mehnatsevarlik, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik hissini shakllantirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

Xalq hunarmandchiligi kasblari haqida ma'lumot berish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy

yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rgatish, ulardan o'z amaliy faoliyatida foydalanish;

Zaif eshituvchi o'quvchilarni turli kasbiy faoliyat turlarida qo'llaniladigan mehnat qurollaridan foydalanishni o'rgatish; zaif eshituvchi o'quvchilarga umummehnat va og'zaki muloqot ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan sifatlarni, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;

Mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha davlat ta'lim standarti va dasturi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarni tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar, zaif eshituvchi o'quvchilar qog'ozni ishlab chiqarishni texnik bosqichlari, ularning yaratilish jarayonlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, qog'oz bilan ishlash usullari, qog'oz, qog'oz turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, qog'oz ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha kasb egalari haqida umumiy tushunchalarni egallash. Qog'oz turlaridan foydalanib, geometrik shakllar asosida qirqish, yelimlash, buklash usullarida turli o'yinchoqlar, milliy kiyim va taomlar, do'ppi, O'zbekistondagi hayvon va parrandalar, manzara, kompozitsiya hamda tabriknomalar tayyorlash malakasini egallash;

Xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha kashtachilikning eng sodda elementlarini tikish. Tikish va uning turlari, asbob-moslamalardan xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilgan holda foydalanish. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlashda chok turlaridan namunalar, yumshoq o'yinchoqlar tikish hamda turli kiyimlarni ta'mirlash ishlarini bajarish;

O'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini texnik modellashtirish orqali rivojlantirish. Sodda turli texnikaviy moslamalarni yasash;

O'quvchilarni loy yoki plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini o'stirish. Plastilin va loydan turli o'yinchoqlar, haykalchalar yasash ko'nikmalarini egallash;

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy qobiliyatini o'stirish, tashlandiq va badiiy materiallardan turli qirqish, yelimlash, birlashtirish usullari orqali hayvonlar, parrandalar, qushlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qiziqarli o'yinchoqlar yasash ko'nikmasini egallash;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy badiiy qurish-yasash san'atining sodda elementlari asosida applikasiya, mozayka usullaridan foydalanib, manzara, buyumlardan kompozitsiya qurish-yasash malakasini egallash.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni umumtexnik tayyorgarligiga poydevor qo'yiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilganligi o'quvchilarning mehnat jarayonida bevosita va ma'lum bir tizimda ishtirok etish ta'limining bu bosqichida o'qishga ongli yondashishni, shaxsni aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlantirishni tarbiyalashda juda zarur bo'lgan omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi o'quvchilarining yagona ta'lim – tarbiya rivojlanish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dasturda quyidagi mehnat turlari ajratilgan: qog'oz bilan ishlash, gazlama bilan ishlash, turli xil xom-ashyoga badiiy ishlov berish asoslari va qishloq xo'jaligi mehnati. Dasturda har bir mavzuga oid o'quvchilarning bilim, malaka mazmuni belgilangan kuzatish va tajribalarga xarakteristika berilgan. Bolalar tomonidan tayyorlashga tavsiya etiladigan buyumlar ro'yxati ko'rsatilgan.

Dastur talablari o'quvchilarda mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan dars va mashg'ulotlarda shakllantirilgan ko'nikmalar va qobiliyatlarni hisobga olgan holda belgilandi. Ayni chog'da ularning amalga oshirilishi nafaqat mehnat darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jihatidan, balki nutqning barcha tomonlari ustida ishlab borishni ko'zda tutdi.

2. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning usullari va vositalari

O‘quvchilarning tushunish jarayonida ham, fikr-mulohazalarini aytish jarayonida ham yo‘l qo‘yadigan xatolari ustida ish olib borishni mehnat darslarining uzviy qismi deb bildik. Xatolarga yo‘l qo‘yilishi tabiiydir, xatolarni tuzatish, ularni anglab olish, bartaraf etish va ularning oldini olishga ko‘maklashildi. O‘quv jarayoniga tatbiq etilayotgan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartida boshlang‘ich sinflar uchun mehnat ta‘limi predmeti bo‘yicha yaratilgan dasturda o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal darajasi aniq ko‘rsatilgan va bu zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internatlarining boshlang‘ich sinflari uchun mehnat ta‘limi predmetidan ishlab chiqilgan dasturda ham o‘z aksini topgan. Bu dasturda zaif eshituvchi o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning darajasi berilgan. Ularni o‘quvchilarga etkazish, o‘quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o‘qiy olish va ijodiy izlanishga yo‘naltirish, ularda fikrlash qobiliyatini, ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirib borish uchun o‘qituvchilar maxsus ta‘limning turli shakl va usullaridan foydalana olishlari zarur bo‘ladi.

Yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchining kasb mahoratiga, pedagogik madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog‘liqdir. Haqiqatdan, o‘qituvchisiz jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini tasavvur etish qiyin. Ta‘lim – tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o‘qituvchilarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir.

Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internat o'qituvchilari dars jarayonida o'quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutmoqlari lozim.

Maxsus maktab-internat darslarida ta'lim-tarbiya, rivojlantirish va korreksion maqsadlar ko'zda tutiladi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan quyidagi muhim talablar bizning ishda ham amalga oshirildi, dars mavzusini yoritishdan avval darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyati hisobga olindi, mavzuning hajmi belgilandi va uning murakkabligi aniqlandi, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'landi, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligi aniqlandi, darsda kerak bo'ladigan jihozlar belgilandi va ko'rgazmali qurollar bilan boyitildi.

Ta'lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish dars samaradorligini oshiradi. Shu sababli o'qitishning yangi usul va vositalari yordamida ta'limning muhim vazifalari hal qilindi. O'qitish usullarini tanlash va ulardan foydalanish darslarning tashkilotchilik shakllari, ularning muvaffaqiyatli hal qilinishi o'quv materialini berishdagi izchillik, amaliy yondoshish, o'quvchilarning faol ishtiroki orqali o'zlashtirish samaradorligiga erishildi.

Zaif eshituvchi bolalar maxsus maktablaridagi mehnat ta'limi o'qitish usullari va uslublari tizimiga qo'yiladigan talab shundan iboratki, u tilning muloqot vositasi va fikrlash quroli sifatida shakllantirilishini amalda ta'minlashi va shu bilan bir qatorda mehnat ta'limi fan sifatida o'rganish vazifalarini hal qilishga imkon berishi kerak. Tadqiqot natijasi va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish tajribalari umumlashtirilishi ayni shunday usullar tizimini ishlab chiqish imkonini berdi.

Pedagogikaning turli metodlaridan:

1. An'anaviy dars o'tish metodlari:

- O‘quv mavzusini og‘zaki bayon (hikoya) qilish; suhbat (savol-javob); darslik bilan ishlash; tushuntirish-namoyish etish; namoyish qilish-ko‘rsatish, sayohat qilish metodi.

2. Innovatsion usullar:

- Badiiy o‘qish; o‘ylab top; o‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish; kasbga bog‘lab dars o‘tish; eksperimental dars o‘tish; taqqoslash; bahs-munozara darsi; muammoli o‘qitish; yozma ishlar olish; kichik guruhlarda ishlash; har kim har kimga o‘rgatadi; mazmunli-rolli o‘yinlar; didaktik o‘yinlardan foydalanib dars o‘tildi, shuning bilan birgalikda o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash uchun esa: savol-javob; qisqa yozma ish; mustaqil ish; tarqatma materiallar; mashq yozish metodlaridan foydalanildi. Quyida shu maqsadga yo‘naltirilgan bir necha usullarni keltirib o‘tamiz.

Kubik

Maqsadi:

- Bu usul ko‘rilayotgan masalani turli tomondan, qadamba-qadam, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishda tasavvur etish;
- Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- Eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarni faollikka undaydi;
- Tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish;
- Og‘zaki nutqini rivojlantirish;
- Idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

Mazmuni:

- Mavzu (tushuncha) haqida e‘lon qilinadi;
 - Eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilar yakka tartibda ishlaydilar. Kubik har bir tomoni uchun topshiriq berilib, 40-60 sekund vaqt ajratiladi;
 - Yakka tartibda ishlash tugagandan so‘ng guruhlarda muhokama qilinadi;
 - “Kubik” ni har bir mikroguruxdan bir vakil (sardor) taqdimot qiladi.
- Yasang. Tavsif etilgan predmetni plastilindan yasang.

Qo'llanilishi:

Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- Bu nima? Ko'rayotgan narsani rangi, o'lchamlari, shaklini tasavvur eting, eslang va yozma ravishda ta'riflang?

- Taqqoslang: U nimaga o'xshaydi, nimadan farq qiladi?

- Assotsiatsiya. Ta'surotingizni izohlang? U sizni nima to'g'risida o'ylashga majbur qildi? Hayolingizga nima keldi?

- Tahlil qiling. Bu nimadan va qanday yasalgan? Nimalardan tashkil topgan? Nimaga o'xshaydi yoki nimadan farq qiladi?

- Qo'llang: Bu nimaga yaraydi? Uni qaerda qo'llash mumkin?

- "Ha" va "Yo'q" larni asoslang. Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni ayting.

Mazayka strategiyasi

Maqsadi:

Eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirish;

Erkin fikrlashga, yuzma-yuz o'tirishga imkoniyat yaratish;

Qo'l barmoqlarining harakatlanishini rivojlantirish;

Bir-birini tinglashga va o'zaro suhbatlashishga o'rgatish.

Mazmuni:

Bu strategiyada yasalishi talab etilgan predmet rasmi bo'laklarga bo'linib, o'quvchilar guruhi tomonidan bir butun ko'rinishga keltiriladi. Buning uchun eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadilar. Yasalishi talab etilgan predmet applikatsiyasi amalga oshiriladi.

Qo'llanishi:

Buning uchun olma rasmi bo'laklarga alohida qilib kesib olinadi va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi bo'laklarni yoyib, so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak. Boshqa guruhlariga

nisbatan ishni oldinroq tamomlagan guruhga quyidagi qo‘shimcha vazifalarni berish mumkin.

Qo‘shimcha topshiriqlar:

1. Olma rasmini alohida yig‘ing;
2. Nok rasmini alohida yig‘ing;
3. Olmani applikatsiyasini yasang;
4. Nokni applikatsiyasini yasang.

Hamma vazifani bajarib bo‘lgandan so‘ng, guruhlar nima ish bilan shug‘ullanganliklari va nimalarni bilib olganliklari so‘raladi va umumlashtiriladi.

Bosqichda qo‘llanishi:

Bu strategiya darsning mustahkamlash bosqichida qo‘lanadi.

Tez yordam usuli

Maqsadi:

Eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarni muammoli vaziyatga tushirish;

O‘zaro muomala qilish malakalarini oshirish;

Ko‘rish, eshitish, tahlil qilish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

Ma’lum bir vaziyatlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish;

Hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.

Mazmuni:

“Tez yordam” usulini turli holatlarda o‘tkazish mumkin, ya’ni juftlikda yoki kichik guruhlarda. Buning uchun yasaladigan predmet turli ko‘rinishlarda bo‘lib beriladi: (rasm, shakl, matn, so‘zlar ko‘rinishida). Tarqatma material har bir guruhning (yoki juftlikning) har bir a’zosiga konvertga solib beriladi.

Qo‘llanishi:

Har bir eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchi o‘z konvertidagi bo‘laklardan yaxlit biror narsa hosil qilishi kerak (konvertda esa shunday bo‘laklarki, ulardan yaxlit hech narsa hosil qilish mumkin emas).

Bir muncha bir vaqtdan so'ng, tekshirib chiqiladi va hech narsa chiqmaganligi sababli, guruh a'zolari bir-birlarining bo'laklarini ko'rib chiqadi va yaxlit biror narsa yasash uchun o'ziga kerakli bo'lakni boshqa guruhdagi boshqa do'stidan so'rab oladi va o'z bo'lagidan yonidagi sherigi uchun zarur qismini beradi. Muddatdan so'ng guruhlarda ma'lum so'z va iboralar paydo bo'la boshlaydi. Boshqa guruhlarga nisbatan tez bajargan guruhlarga qo'shimcha topshiriq beriladi. Bosqichlarda qo'llanishi: Bu usul yangi mavzu bayonida, mustahkmlash bosqichlarida qo'llaniladi. Maxsus ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni darslarini shu tipda tashkil etish kar bolalar mehnat malakasini shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Zero, bu metodlar samarali va effektiv metod ekanligi tajribalarda o'z isbotini topmoqda. Ayni paytda har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalarga ko'r-ko'rona emas, balki ijodiy yondashish kerakligini ta'kidlab o'tish joiz Maxsus ta'lim olish orqali savodni, nutqni egallagan kar va zaif eshituvchilar barcha qatori jamiyatda o'z o'rnini topib ketishlari mumkin.

Mehnat ta'limi darslari o'z tuzilmalari, ularda foydalaniladigan mashq turlari bo'yicha farqlanadi. Ularni o'tkazish uslubiyati o'rganilayotgan materialning xususiyatlari, uning ustida ishlashdan ko'zlanadigan didaktik vazifalar bilan belgilandi. Mehnat ta'limi darslari oldindan tayyorlangan leksik material asosida o'tkazildi, lekin aniq dars materialiga kiritilgan leksikaning tushunilishini o'qituvchi darsning boshida tekshirishi kerak. O'qituvchi leksikani bolalar tushunishlarini mashg'ulotning davomida ham, shu jumladan, o'quvchilarning gap o'ylab topishlari, misollar tanlashlari paytida ham nazorat qilib bordi.

Mehnat ta'limi darsiga tayyorlanishda u yoki bu tushunchalarni shakllantirish, ularni farqlash, ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalariga muofiq ravishda ko'rgazmali material tanlab olindi (predmetli, situativ va syujetli rasmlar, buyumlar va hokazo). Tuzilmalarga kelsak, yangi nutq materialli darslarda o'quvchilar ularni o'qituvchining rahbarligida tuzdilar. Tayyor tuzilmalar

o'quvchilarga mavzu bo'yicha keyingi darslarda berildi va mashq qilish uchun ma'lumotli qo'llanma bo'ldi (nazorat ishlari paytida ular, albatta, olib qo'yildi).

Mehnat ta'limi darslarining bosh vazifasi o'quvchilarni umumlashmalarga olib kelish asosida tegishli ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'lganligi sababli ularga qiyoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanib bajariladigan turli mashqlar kiritildi. Har bir darsda o'quvchilar mustaqil bajarishlari lozim bo'lgan topshiriqlar bo'ldi. Ish og'zaki va yozma shaklda olib borildi. Uy topshiriqlari o'quvchilarga shuni hisobga olib berildiki, ularni bajarishda o'quvchilar yozma mashqlarda hali darslarda o'tilmagan qonuniyatlardan foydalanish zaruriyatiga duch kelib qolmasliklari kerak bo'ldi.

Biz taklif etayotgan yangicha yondoshish quyidagi korrektsiya ishlarini: ishni zaif eshituvchi o'quvchilarga ularda saqlanib qolgan eshitish qoldiqlaridan keng ko'lamda foydalanishni o'rgatish asosida olib borish; o'quvchilarning lug'at boyligini shakllantirish: tevarak-atrofdagi predmetlarni nomlash; harakatlarni nomlash; predmetlarning belgi va xususiyatlarini so'z bilan ifodalash; predmetlarning son-sanog'ini bildirgan so'zlarni; predmetlarning tartibini bildirgan so'zlarni bilishni ko'zda tutadi.

Deyarli har bir darsda gaplarni savollar (kim?, nima?, nima qilyapti?, qanday?, qancha?, nechta?, nechanchi?, qay tarzda?, nimani?, kimga?, qaerda?, qachon?, nima bilan ?...) bo'yicha tahlil qilishdan foydalanildi. Ushbu usul yordamida o'quvchilarni so'zlar shakllari va bog'lanishlarini taqqoslashga, kerakli kategoriyalarni ajratishga olib kelindi.

Ko'nikmalarni avtomatlashtarishga bag'ishlangan darslarda vaqtning katta qismi takrorlash tusidagi jamoali va mustaqil mashqlarga ajratildi. Darslarda o'quvchilar nazorat ishlarni mustaqil bajardilar, keyingi darsda xatolar muhokama qilindi va tuzatildi, qaysi qonuniyatlarda xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, o'sha qonuniyatlarga oid mashqlar berildi. Bunda o'quvchilarning faolligi va mustaqilligi ishdagi muhim talab bo'ldi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek,

materialni takrorlash tabiiy yo‘l bilan amalga oshirildi, chunki uni guruhlash usullari muqarrar ravishda o‘quvchilarni ilgari o‘rganilgan qonuniyatlarga ko‘p marotabalab, lekin ular namoyon bo‘lishining (yangi o‘rganilganlari bilan birgalikda) yangi sharoitlarida takror-takror qaytishlariga olib keldi. Shu bilan birgalikda yil oxirida etarlicha o‘zlashtirilmagan materialni takrorlashga vaqt ajratildi.

3. Ta’limiy tadqiqot natijalarining tahlili

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ishlari yuzasidan yuqorida ta’kidlangan korreksion-pedagogik tizim bir o‘quv yili davomida sinovdan o‘tdi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi 106-zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internatining 3-«A» va 3-«B» sinflarida olib borildi. Nazorat sinfi 3-«A» sinfidagi bolalar amaldagi dastur bo‘yicha, tajriba sinfi 3-«B» sinfidagi bolalar biz taklif etgan korreksion-pedagogik tizim asosida o‘qitildi. Tadqiqotda 20 nafar zaif eshituvchi o‘quvchilar ishtirok etdilar. Maxsus maktabda mehnat darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishning xolatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida S.I.Fomichev metodikasidan foydalandik. Nazorat sinfidagi zaif eshituvchi o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakasini tekshirish natijalari:

1-Topshiriq: Mehnat faoliyati predmetlari haqidagi bilimlarni aniqlash topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchiga karton qog‘oz berildi va uni tavsiflab berish so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 5 (50%) nafari mazkur vazifani mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 3(30%) nafari pedagog karton qog‘oz burchaklarini qo‘li bilan ko‘rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 2 (20%)

nafari kartonni diqqat bilan qarab chiqib, uni burchaklarini sanab chiqish vazifasini bajara olmadi.

2-Topshiriq: Mehnat faoliyati uchun zaruriy lugʻat boyligining holatini aniqlash topshiriqʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga karton, qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlari yozilgan kartochkalar berildi va shu soʻzlar ishtirokida gap tuzish soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 2 (20%) nafari karton, qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlari ishtirokida gap tuzdi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 4 (40%) nafari pedagog bolaga karton, qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlaridan birini ishtirokida gap tuzib berib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan soʻng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 4 (40%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻich, oʻchirgʻich soʻzlari ishtirokida gap tuzish vazifasini bajara olmadi.

3-Topshiriq: Mehnat quoli haqidagi tasavvurlarni aniqlash topshiriqʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga qaychi, qalam, yelim, chizgʻich beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 3 (30%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻichni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 3 (30%) nafari pedagog bolaga Mehnat quollaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan soʻng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 4 (40%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻichni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini bajara olmadi.

4-Topshiriq: Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash topshiriqʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga geometrik shakllar beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri

Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2 (20%) nafari geometrik shakllari nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 4 (40%) nafari pedagog bolaga geometrik shakllaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 4 (40%) nafari geometrik shakllarini nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini bajara olmadi.

5-Topshiriq: Nutqiy ko'rsatma bo'yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga namuna asosida kartondan quti yasash topshirig'i berildi. Ko'rsatma: "Namunani diqqat bilan qarab chiq va berilgan o'lcham asosida kartonga quti andozasini chiz. So'ngra quti andozasini qirqib olib, quti chetlarini yelimlab chiq". Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 5 (50%) nafari kartondan quti yasash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 3 (30%) nafari pedagog bolaga kartondan quti yasashni ko'rsatib berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2 (20%) nafari kartondan quti yasash vazifasini bajara olmadi.

6-Topshiriq: Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga namuna asosida kartondan quti yasashni mustaqil rejalashtirish so'raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 5 (50%) nafari kartondan quti yasash rejasini tuzish vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 3 (30%) nafari pedagog bolaga kartondan quti yasash rejasini ko'rsatib berib va bolaga shu xarakterni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi.

10(100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2 (20%) nafari kartondan quti yasash rejasini tuzish vazifasini bajara olmadi.

7-Topshiriq: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yig‘ish malakasini aniqlash topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchiga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 5 (50%) nafari “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 5 (50%) nafari pedagog bolaga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi.

8-Topshiriq: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish malakasini aniqlash topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchiga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahridagi Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 5 (50%) nafari “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 4 (40%) nafari pedagog bolaga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 1 (10%) nafari “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan

transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini bajara olmadi.

Nazorat sinfidagi zaif eshituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini tekshirish natijalari

2-jadval

№	Topshiriqning mazmuni	O‘quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni pedagog yordami asosida bajardi	Topshiriqni bajara olmadi
1	Mehnat faoliyatining predmetlar haqidagi bilimlarini aniqlash	10(100%)	5(50%)	3(30%)	2(20%)
2	Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug‘at boyligining holatini aniqlash	10(100%)	2(20%)	4(40%)	4(40%)
3	Mehnat quoli haqidagi tasavvurlarni aniqlash	10(100%)	3(30%)	3(30%)	4(40%)
4	Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash	10(100%)	2(20%)	4(40%)	4(40%)
5	Nutqiy ko‘rsatma bo‘yicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash	10(100%)	5(50%)	3(30%)	2(20%)
6	Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash	10(100%)	5(50%)	3(30%)	2(20%)
7	“Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida	10(100%)	5(50%)	5(50%)	

	yig'ish malakasini aniqlash				
8	“Transport va Qishloq xo'jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo'shimcha shart bilan yig'ish	10(100%)	5(50%)	4(40%)	1(10%)

Tajriba sinfidagi zaif eshituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini tekshirish natijalari:

1-Topshiriq: Mehnat faoliyati predmetlari haqidagi bilimlarni aniqlash topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchiga karton qog'ozi berildi va uni tavsiflab berish so'raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 8 (80%) nafari mazkur vazifani mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 2 (20%) nafari pedagog karton qog'ozi burchaklarni qo'li bilan ko'rsatib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi.

2-Topshiriq: Mehnat faoliyati uchun zaruriy lug'at boyligining holatini aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari yozilgan kartochkalar berildi va shu so'zlar ishtirokida gap tuzish so'raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 5 (50%) nafari karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlari ishtirokida gap tuzdi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o'quvchilarning 5 (50%) nafari pedagog bolaga karton, qaychi, qalam, yelim, chizg'ich, o'chirg'ich so'zlaridan birini ishtirokida gap tuzib berib va bolaga shu xarakat takrorlashni taklif etgandan so'ng mazkur vazifani bajardi.

3-Topshiriq: Mehnat quroli haqidagi tasavvurlarni aniqlash topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchiga qaychi, qalam, yelim, chizg'ich beriladi va ularni

nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 5 (50%) nafari qaychi, qalam, yelim, chizgʻichni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 5 (50%) nafari pedagog bolaga Mehnat quollaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan soʻng mazkur vazifani bajardi.

4-Topshiriq: Shakl va hajmi idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash topshirigʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga geometrik shakllar beriladi va ularni nomlash, belgilarni tavsiflash soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahridagi Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 4 (40%) nafari geometrik shakllarni nomlash, belgilarni tavsiflash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarning 6 (60%) nafari pedagog bolaga geometrik shakllaridan birini nomlab, tavsiflab berib va bolaga shu xarakatni takrorlashni taklif etgandan soʻng mazkur vazifani bajardi.

5-Topshiriq: Nutqiy koʻrsatma boʻyicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash topshirigʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga namuna asosida kartondan quti yasash topshirigʻi berildi. Koʻrsatma: “Namunani diqqat bilan qarab chiq va berilgan oʻlcham asosida kartonga quti andozasini chiz. Soʻngra quti andozasini qirqib olib, quti chetlarini yelimlab chiq”. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi oʻquvchilarini barchasi kartondan quti yasash vazifasini mustaqil bajardi.

6-Topshiriq: Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash topshirigʻini bajarish jarayonida oʻquvchiga namuna asosida kartondan quti yasashni mustaqil rejalashtirish soʻraldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 10 (100%) nafar zaif

eshituvchi o‘quvchilarini barchasi kartondan quti yasash rejasini tuzish vazifasini mustaqil bajardi.

7-Topshiriq: “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yig‘ish malakasini aniqlash topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchiga “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabning 3-sinf 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning barchasi “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi.

8-Topshiriq: “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qo‘shimcha shart bilan yig‘ish malakasini aniqlash topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchiga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash so‘raldi. Tadqiqotda ishtirok etgan Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktabining 3-sinf 9 (90%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilar “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasash vazifasini mustaqil bajardi. 10 (100%) nafar zaif eshituvchi o‘quvchilarning 1 (10%) nafari pedagog bolaga “Transport va Qishloq xo‘jaligi mashinalari” konstruktori detallaridan transport mashinasi va qishloq xo‘jaligi mashinasini yasashni ko‘rsatib va bolaga shu xarakat takrorlashni taklif etgandan so‘ng mazkur vazifani bajardi.

Tajriba sinfidagi zaif eshituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini tekshirish natijalari


3-jadval

№	Topshiriqning mazmuni	O‘quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni pedagog yordami	Topshiriqni bajara olmadi
----------	------------------------------	----------------------	-------------------------------------	------------------------------------	----------------------------------

				asosida bajardi	
1	Mehnat faoliyatining predmetlar haqidagi bilimlarini aniqlash	10(100%)	8(80%)	2(20%)	
2	Mehnat faoliyati uchun zaruriy lugʻat boyligining holatini aniqlash	10(100%)	5(50%)	5(50%)	
3	Mehnat quroli haqidagi tasavvurlarni aniqlash	10(100%)	5(50%)	5(50%)	
4	Shakl va hajmni idrok etish va nomlash hususiyatlarini aniqlash	10(100%)	4(40%)	6(60%)	
5	Nutqiy koʻrsatma boʻyicha topshiriqni bajarish malakasini aniqlash	10(100%)	10(100%)		
6	Mehnat faoliyatini mustaqil rejalashtirish malakasini aniqlash	10(100%)	10(100%)		
7	“Qishloq xoʻjaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida yigʻish malakasini aniqlash	10(100%)	10(100%)		
8	“Transport va Qishloq xoʻjaligi mashinalari” konstruktori detallarini namuna asosida qoʻshimcha shart bilan yigʻish	10(100%)	9(90%)	1(10%)	


Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari

(1-topshiriq)




Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari

(2-topshiriq)




Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari

(3-topshiriq)




Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari


(4-topshiriq)



**Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari
(5-topshiriq)**




**Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari
(6-topshiriq)**




Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari

(7-topshiriq)



Tajriba va nazorat guruh tahlilining qiyosiy natijalari

(8-topshiriq)



Tajriba-sinov va nazorat sinflarida olib boriladigan o'quvchilarni o'qitish metodikalari bo'yicha hisoblanadigan o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ko'ra tajriba-sinov sinflarida o'zlashtirish nazorat sinflarinikidan yuqori bo'ldi, degan xulosani qila olamiz. Demak, zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

Demak, nazorat va tajriba-sinov sinflaridagi o'quvchilarning mehnat bo'yicha egallagan ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajalari orasidagi farq tadqiqotimiz ilmiy farazi to'g'riligini isbotladi.

Ta'limiy tajribalar zaif eshituvchi o'quvchilar mehnat bo'yicha egallagan ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'qitishning umumiy, hamda xususiy tamoyillariga tayanilgan korreksion-pedagogik tizim asosida amalga oshirilishini isbotladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda nutq faoliyatining bosqichlarini farqlash, maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi, muloqotga ehtiyoj tug'diruvchi muammoli vaziyatlarni yaratish, maxsus ravishda tanlab olingan va tizimlashtirilgan nutq materialini asosida ish olib borish; ko'rgazmali vositalarini keng jalb etish, nutqning xilma-xil turlari, shakllari va usullaridan tartibga solgan tarzda foydalanish, o'quvchilar nutqining holatini muntazam o'rganish jarayonida olinadigan ma'lumotlarni hisobga olish asosida mehnat talimi tashkil etish muhim omillardan hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usul va vositalarini tanlashda bolalarda shakllantirish kerak bo'lgan ko'nikmalar va qobiliyatlarning mohiyatini, ushbu ko'nikma va qobiliyatlar jarayoni kechishi kerak bo'lgan materialining xususiyatlarini, bolalarning nutqga va bilishga oid

imkoniyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari o'qituvchi bergan tuzilma (konstruktsiya) namunasi, ularda foydalaniladigan mashq turlari bo'yicha farqlanadi. Birdaniga butun sinf bilan, shu vaqtning o'zida har bir bola bilan alohida ishlay oladigan mutaxassis o'qituvchigina ta'limiy, tarbiyaviy va korrektsion maqsadga erisha oladi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi bo'yicha xorijda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlar eshitish idroki buzilgan bolaga mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maxsus tashkil etilgan jarayonda va ilmiy asoslangan tizim va metodik vositalarning qo'llanilishi asosida amalga oshirilishi lozim degan ilmiy farazimizning asosli ekanini ko'rsatdi.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ilmiy asoslangan korreksion-pedagogik tizim va uni o'rgatish bo'yicha maxsus uslubiyat ishlab chiqilmaganligi zaif eshituvchi bolalar bilim, ko'nikma va malakalarni talab darajasida shakllanmaganligining asosiy sabablaridandir.

3. Tildan kommunikasiya maqsadlarida foydalanish, maxsus o'qitishda nutq faoliyatining bosqichlarini farqlash, maxsus pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi, muloqotga ehtiyoj tug'diruvchi muammoli vaziyatlarni hosil qilish, tabiiy vaziyatlar va didaktik o'yinlardan foydalanish, maxsus ravishda tanlab olingan va tizimlashtirilgan nutq materialini asosida ish olib borish; til o'qitishning ko'rgazmali vositalarini keng jalb etish, nutqning xilma-xil turlari, shakllari va usullaridan tartibga solingan tarzda foydalanish, o'quvchilar nutqining holatini muntazam o'rganish jarayonida olinadigan ma'lumotlarni hisobga olish asosida o'qitishni tashkil etish mehnat malakalarini amaliy egallashda muhim omillardandir.

4. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning dastlabki korreksion davrining to'g'ri tizimga solinishi keyingi bosqichlar samaradorligining asosiy omili hisoblanadi.

5. Mehnat darslari o'qituvchi bergan tuzilma (konstruktsiya) namunasi, ularda foydalaniladigan mashq turlari bo'yicha farqlanadi. Bir vaqtning o'zida butun sinf bilan, shu vaqtning o'zida har bir bola bilan alohida ishlay oladigan mutaxassis pedagoggina ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion maqsadga va ta'lim samaradorligiga erisha oladi.

6. Biz tavsiya etayotgan dastur talablariga javob bera oladigan metodlar, ishlanmalar va tavsiyalardan foydalanilganda, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish korreksion-o'quv predmetlari asosida fanlararo integratsiya tarzida amalga oshirilganda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish darajasi ortadi, sur'ati tezlashadi.

8. Mehnat darslarida bilim, ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirishni ta'minlash orqali, bu toifadagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi muloqot vositasi darajasigacha rivojlantiriladi va rehabilitatsiya jarayoniga yo'l ochiladi, uyg'un tarzda ta'lim olish imkoniyatlari yaratiladi, ta'lim berish jarayonining samaradorligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni Toshkent: O‘zbekiston, 2007.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. A.Karimov «O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» Toshkent: O‘zbekiston, 2011.-58.bet

III. Asosiy adabiyotlar

1. А.П. Газова Психолгия трудового обучения глухих. М., “Педагогика”. 1999.214.-с.

2. Веронова Т.В. Теория и практика коррекционной педагогики. – Минск.: 2007.-29.с.

3. Воспитательная работа в школе слабослышащих. Из опыта работы сурдопедагогов./ Под ред. Л.В.Никулиной. – М.: Просвещение,1981.–39 с.

4. Зикова Т.С., Зикова М.А. Методика предметно–практического обучения в школах для глухих детей. -М., “Академия”.2002.–169с

5. Л.М.Быкова., Е.Е.Вишневская Методика развития речи глухих школьников в младших классах.-Л., 1999.-С. 12-13.

6. Марциновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. –М. Просвещение ,1992 .-79 с.

7. П.П.Костенков Процесс трудового воспитания в школе.Барнаул. “Алтайское книжное издательство”.1996. – с. 65.

8. Специальная педагогика. Под.ред. Н.М.Назаровой.–М.:Академия,-89б.

9. Сурдопедагогика / Под ред. М.И.Никитиной. –М.: Просвещение, 1989. -34 с.

10. Amirsaidova SH.M. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida sharq mutafakkirlari g‘oyalarining o‘rni va roli: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoreferati. - T.: 2006.-93.bet.

11. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. –Toshkent: TDPI. 1994.– 18 b.

12. Фомичев С.И. Формирование трудовых умений и навыков у школьников с недоразвитием интеллекта на основе конструктивной деятельности: Пед. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2003. - 60 б

13. Musayeva S.I. Mehnat ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tejamkorlik hislatlarini singdirish: Ped. fan. nomz. ... diss. – Т.: 1995. - 135 b.

14. Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari.: Ped. fan. nomz.dis. ... avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. – 26 b

15. Salixova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – Т.: 2004. - 25 b.

16. Umarov S.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasbhunarga yo'naltirish texnologiyalari. (V-IX sinflar misolida): Ped. fan. nomz.... diss – Т.: 2005. - 46 .b.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Аксенова Л.А. Социальная педагогика в специальном образовании. – М.: Академия, 2001.– 124 с.

2. Андреева Л.В и др. Сурдопедагогика. –М.:Просвещение, 1989.–384 с.

3. Аتماхова Л. Новые подходы, квалификация, мастерство// Дошкольное воспитание.– Москва, 2008 – № 3.– С.15 -18.

4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1996 – 386 с.

5. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. –М.: Просвещение, 1984. – 295 с.

6. Бородич А.М. Методика развития речи детей. – М.: Просвещение, 1981. – 255 с.

7. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. –М.: Владос, 2001–316 с.
8. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха.–М.: Просвещение, 1988. – 128 с.
9. Быкова Л.М. и др. Методика обучения русского языка в школе глухих. –М.: Владос, 2002.–400 с.
10. Дьячков А.И. и др. Дефектологический словарь. – М.: Педагогика, 1990. – 477 с.
11. Интенсификация учебного процесса в школе слабослышащих. / Сб.науч.тр. НИИД СССР. – М., 1988. – 80 с.
12. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушенным слухом в семье. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.
13. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников. – М.: Просвещение, 1985. – 176 с.
14. Magzumov P.T. va boshqalar. O‘quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 206 b.
15. Mo‘minova L., Qahramonova M. Logopediya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 48 b.
16. Марциновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. –М. Просвещение ,1992 .-79 с.
17. Мирский С.Л. Методика профессионально-трудового обучения во вспомогательной школе: Пособие для учителя - 2-е изд.перераб.–М.: Просвещение, 1988. - 223 с.
18. П.П.Костенков Процесс трудового воспитания в школе.Барнаул. “Алтайское книжное издательство”.1996. – с. 65.
19. Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих учащихся.– М. : Педагогика,1996. – 240 с.
20. Зикова Т.С., Зикова М.А. Методика предметно–практического обучения в школах для глухих детей. -М., “Академия”.2002.–169с

21. Магдиев А.Ш. Профориентационная направленность трудового обучения и воспитания сельских школьников (на материалах школ Узбекистана): Дисс. ... канд. пед. наук. – Т.: 1990. - 151 с.


22. Магзумов П. Педагогические основы трудового становления личности школьника: Дисс. ... докт. пед наук. – Т.: 1991. - 342 с.

23. Мерсиянова Г.Н. Воспитание самостоятельности у учащихся вспомогательной школы в процессе профессионально-трудового обучения: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М.: 1962. - 14 с.

24. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. //Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.

25. Родичева В.И. Общественно полезный, производительный труд как средство профориентации старшеклассников: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М.: 1987. - 17 с.

26. Хаитов А. Трудовая подготовка сельских школьников на основе взаимосвязи общего политехнического и профессионального образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: 1991. - 39с.



Tayanch so‘zlar lug‘ati			
1	Albom	Альбом	Album
2	Analizator	Анализатор	Analyser
3	Anketa	Анкета	Form
4	Applikatsiya	Аппликация	Application
5	Bilim	Знание	Knowledge, education
6	Gazlama	Материал	Manufactory
7	Gazmol	Утюг	Fabric textile
8	Dars	Урок	Lesson
9	Dastur	Программа	Reversing rod
10	Daftar	Тетрадь	Writing-book
11	Yozma	Письменный	Writing
12	Yelim	Клей	Glue, paste
13	Zaif eshituvchi	Слабо слышащий	Weak hear
14	Karlik	Глухота	Deafness
15	Karton	Картон	Pasteboard
16	Kasb	Профессия	Occupation
17	Ko‘nikma	Практика	Custom
18	Qaychi	Ножницы	Scissors
19	Qog‘oz	Бумага	Paper
20	Qo‘l mehnati	Ручная работа	Hand work
21	Lug‘at	Словарь	Dictionary
22	Maktab	Школа	School
23	Malaka	Навыка	Practice
24	Mato	материал	Cloth
25	Maxsus	Специальный	Special
26	Mehnat	Труд	Labour
27	Muloqot	Общение	Meeting
28	Nuqson	Дефект	Defect

29	Nutq	Речь	Speech
30	Ovoz	Голос	Voice
31	Og‘zaki	Устный	Oral
32	Rangli qog‘oz	Цветная бумага	Non-ferrous paper
33	Rasm	Картина	Picture
34	Rivojlanmoq	Развитие	Developing
35	So‘z	Слова	Word
36	Surdoaudiologiya	Сурдоаудиология	Surdoaudiology
37	Surdopedagogika	Сурдопедагогика	Surdopedagogic
38	Tarbiya	Воспитание	Education
39	Tahlil	Анализ	Analysis
40	Ta‘lim	Образование	Teaching
41	Texnologiya	Технология	Technology
42	tikmoq	Шить	Sew, stitch
43	Til	Язык	Tongue
44	Tovush	Звук	Sound
45	To‘qimoq	Плести	Weave
46	O‘quvchi	Ученик	Pupil
47	Faoliyat	Деятельность	Activity
48	Shakllanmoq	Формирование	Take shape
49	Eshitmoq	Слышать	Hear
50	Yasamoq	Делать, лепить	Make